

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

SEVARA MAHMUDOVA

***O'ZBEK ADABIYOTI
FANIDAN MUSTAQIL TA'LIM
UCHUN METODIK TAVSIYALAR***

(uslubiy qo'llanma)

Toshkent - 2022

VO'K 37

KBK 74

M 37

Mazkur uslubiy qo'llanma o'zbek adabiyoti fanidan talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini samarali tashkil etish maqsadida tayyorlangan. Qo'llanmadan fanni mustaqil o'zlashtirish bo'yicha tavsiyalar, topshiriqlar, keyslar, test savollaridan namunalar, adabiyotlar ro'yxati, mustaqil ish mavzulari o'rinni olgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma san'at va madaniyat instituti ta'limi uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi:

Sevara Irisaliyevna Mahmudova – O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Latofat Toshmuhamedova - O'zbekiston jurnalistika va ommaviy axborot kommunikatsiyalari universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Dilnoza Jumayeva -- O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Badiiy, o‘quv-uslubiy kengashining 2022-yil 25-fevraldagi 7-majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan. (25 fevral 2022-yil 7-sonli bayonnomasi)

O‘ZBEK ADABIYOTI FANIDAN MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

O‘zbek adabiyoti fanini o‘zlashtirishda talaba darsdan tashqari bajaradigan mustaqil ishlar muhim ahamiyatga ega. Ular bir qancha tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

1. Badiiy matnlarni mustaqil o‘qib o‘rganish. O‘qish uchun tavsiya etiladigan badiiy asarlar ro‘yxati har semestrning boshida beriladi. Ularning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi amaliy mashg‘ulotlar, individual muloqotlar, reyting nazoratlari davomida tekshirib boriladi.
2. Bibliografik ish darslik, spravochnik, maxsus adabiyotlar bilan mustaqil ravishda tanishishdir. O‘qituvchi manbalarni tavsiya etadi, talaba esa seminar mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishda, fanning bo‘lim va mavzularini o‘zlashtirishda ularni mustaqil ravishda o‘rganadi.
3. Terminlarni o‘zlashtirish.O‘qituvchi fanni o‘qitish davomida maxsus atamalar bilan maqsadli va izchil ravishda tanishtirib boradi, ammo talaba terminologiyaning asosiy qismini mustaqil o‘zlashtirib borishi lozim, busiz, albatta adabiyotni ilmiy ravishda o‘rganishi mumkin emas.O‘qituvchi muhim sanalgan manbalarni tavsiya etadi. Masalan, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”, “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiy turlar va janrlar”. Talaba esa tahsil olish davomida ular bilan mustaqil ravishda tanishib boradi.
4. Badiiy asarga individual, ijodiy yondoshuvni rivojlantirish. Adabiyotni o‘rganish o‘qigan asarga nisbatan emotsiyonal, shaxsiy munosabatni shakllantiradi.Bunday munosabatni qo‘llab quvvatlash, talaba o‘zining fikrini bildirishiga imkon yaratish lozim.

Mustaqil ta’lim quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- 1.Individual shug‘ullanish (uy vazifasini tayyorlash);
- 2.Ma’ruza konspektlarini tayyorlash, og‘zaki javob berishga tayyorlanish.
- 3.Testlarni yechish.
- 4.Yakuniy nazoratga tayyorlanish.
- 5.Nazorat ishlarini bajarish.
6. Referat, mustaqil ish, esselar, idrok xaritalarini tayyorlash.

Mustaqil ta’lim individual shaklda yoki talabalar guruhi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunda mustaqil ishning maqsadi, hajmi, mavzusi, murakkablik darajasi, talabalarning malakasidan kelib chiqiladi.

Talabalar mustaqil ta’limining mohiyati maxsus pedagogik konstruksiya sifatida unda qo‘yilgan o‘quv ma’rifiy maqsadlardan kelib chiqib belgilanadi. Shunday ekan, mustaqil ta’lim talabaning o‘quv materialni o‘zlashtirishidagi mustaqil faoliyatigina bo‘lib qolmay, o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinuvchi, ta’limning o‘ziga xos shartlariga asoslangan shaklidir.

KIRISH NAZORATI

Fan bo‘yicha mashg‘ulotlar boshlanar ekan talabaga darsdan tashqari og‘zaki yoki yozma tarzda quyidagi berilgan savollarga javob berish tavsiya etiladi.

1. Mutolaaga munosabatingiz qanday? Yoqtirgan badiiy asarlaringizni sanang.
2. Badiiy adabiyotni ilmiy jihatdan o‘rganishni noprofessional kitobxon uchun zarur deb bilasizmi?
3. Sizning kasbiy faoliyattingizda adabiyotga oid bilimlar qanchalik zarur deb o‘ylaysiz?
4. Juhon madaniyati tarixida o‘zbek adabiyoti qanday o‘rin tutadi?
5. Adabiyotga oid qanday uslub va turlarni bilasiz?
6. Zamonaviy adabiyotga oid tadqiqotlar siz uchun qanchalik dolzarb?

Kirish nazorati fanni o‘qitishdan avval o‘tkaziladi. Bunday nazoratni o‘tkazish:

- A) talabaning bazaviy bilim darajasini aniqlash;
- B) ushbu bilim sohasi bilan talaba qanchalik tanish ekanligini;
- C) noaniq va yolg‘on tasavvurlarni aniqlash;
- D) ta’lim jarayonini tahrir qilish;
- E) tahsilga tayyorgarlik va intizomlilik darajasini belgilab olishga yordam beradi.

Ushbu savollarga erkin tarzda javob beriladi. Javoblar baholanmaydi, lekin o‘qituvchi javoblar natijasini yakuniy nazoratni baholashda inobatga oladi.

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMI UCHUN TOPSHIRIQLAR

MAVZU: ENG QADIMGI ADABIY YODGORLIKlar

1-Topshiriq. Mavzuni tavsiya etilgan o‘quv va badiiy adabiyotlardan o‘rganib, quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. Eng qadimga adabiy yodgorliklarga nimalar kiradi?
2. “Kitobi Dada Qo‘rqu” va “O‘g‘uznama”, “Irq bitigi” asarlari haqida ma’lumot bering
3. Qadimgi afsonalardan qaysilarini bilasiz? Bu afsonalar G‘arbning qadimgi afsonalariga qanchalar o‘xshash yoki farqli?
4. “Avesto” ni o‘rganish bugungi kun kishisiga nima beradi?
5. “Avesto” dagi gumata, gupta, gvorishta so‘zlari nimani anglatadi?
6. Anketil Dyuperron kim? Uni qaysi xizmatlari uchun tilga olamiz?
7. O‘rxun-Enason yodgorliklari qanday yodgorliklar? Biz nima uchun ularni o‘rganishimiz zarur?

1-Topshiriq. Quyidagi matnni o‘qib, savollarga javob bering.

MIF NIMA?

“Mif nima?” degan savol har doim ko’ndalang bo’lib turadi. Mif, sodda qilib aytganda, olamning yaratilishi, insoniyatning kelib chiqishi, shuningdek, xudolarning, qahramonlarning paydo bo’lishi, ularning faoliyati haqidagi badiiy, sodda va ko’pincha g’alati ko’hna badiiy tafakkur mahsuli bo’lgan parchadir. Mif yunoncha so’z bo’lib, “afsona”, “rivoyat” ma’nolarini bildiradi. Ammo mifni afsona bilan bir deb qarab bo’lmaydi. Mif badiiy tafakkurning eng kichik, sodda, epik syujetga ega bo’lmagan ilk badiiy shaklidir. Mif adabiy

jarayonning birinchi bosqichidir. Yoki quyidagi ta‘rif mif bilan afsonani yanada aniqroq farqlashga, ular o‘rtasidagi ayirmani yanada tushunarli qilib ko’rsatishga xizmat qiladi: “Miflar - biz hozirda afsona deb ataydigan muqaddas rivoyatlar xarakterini qabul qiladi, Mif bilan afsona o‘rtasidagi farq tushunarli: mif – tafakkurning beixtiyor shaklidir, afsona – ongli ijodning mahsulidir.Miflar muqaddas afsonalar”.Adabiy jarayon tushunchasini kengroq tushunish talab etiladi. Insoniyat mif yaratishni maqsad qilib qoymaydi, balki ma‘lum kultlar, udumlar. urf-odatlarni bayon qilish natijasida miflarning ayrim turlari kelib chiqadi.

Ibtidoiy jamiyatda mif olamni tushunish va anglashning asosiy usuli bo’lgan edi. Shuning uchun mif ijod qilish insoniyatning madaniy taraqqiyotida muhim hodisa hisoblanadi. Bu jarayon hamma mif turiga aloqador.

Mif - ibtidoiy insonning fikrlash darajasini ko’rsatuvchi omil. Ibtidoiy inson o’zini tabiiy olamdan aniq ajrata bilmagan, shu bois tabiiy ob‘ektlarga o’z insoniy xususiyatlarini ko’chiravergan – tabiiy ob‘ektlar inson kabi hayot kechiradi, insoniy his-tuyg’ulari bor, ongli, ma‘lum maqsadga yo’naltirilgan xo’jalik faoliyatini yuritadi, deb bilgan. Shuningdek, inson ibtidoiy bosqichda mavhum fikrlashni bilmagan. Mifning barcha turlari manbai ana shu fikrlashda. Fetishizm, animizm va totemizm kabi inonch-e‘tiqodlar ham aslida atrof muhitni —insonlashtirishidan kelib chiqqan.

Turkiy miflar ham ayni shu xususiyatlarva jarayonlarni bosib o’tgan. Qadimgi turkiy miflarning manbai urxun-enisey yozma yodgorliklari va qadimgi xitoy yilnomalarida, ayrim arab, fors va boshqa manbalarda saqlanib qolgan. Umuman olganda, qadimgi turkiy miflarning ildizlari juda ko’hna, ishonchli manbalarda saqlangani bilan diqqatga sazovor. Qolaversa, turkiy miflar o’zlikni anglashning bitta omili, shu bois bu miflar ajdodlarimizning ma‘naviy hayotida muhim rol oynagani shubhasiz.

1. Mif deb nimaga aytildi?

2. Miflarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillarni ayting.

3. Afsonaning mifdan farqli jihatlarini ayting.

4. Ibtidoiy jamiyatda mifning xususiyatlari nimadan iborat?

2-Topshiriq. Quyidagi matnni o'qib, savollarga javob bering.

TO'FON HAQIDA MIF

O'rxun bitiktoshlarida Sharqdagi ko'p xalqlarda tarqalgan To'fon haqidagi mif singari motivlarga ham duch kelamiz. "To'fon haqidagi mifning motivi insoniyatni to'fon orqali qirib tashlash haqida xudolarning qaroridir. Xudolarning bu qarorga sabab – insoniyatning gunohkorligidir. Shumerlarda, bobil xalqida To'fon haqidagi mif deyarli bir. Musoning "Ibtido" kitobida To'fon voqeasi ma'lum. Insoniyatni yer yuzidan qirib tashlash uchun vosita faqat suv emas, boshqa vositalar ham bo'lishi mumkin. Masalan, "Avesto" da qahraton qish Sharq mifologiyasidagi to'fon singari vazifani bajaradi – Xo'rmuzd yaqinlashib kelayotgan qattiq sovuq yer yuzida jamiki tirik jonzotni qirib tashlashi haqida Yimani ogohlantiradi. Haqiqatan, Yima bir uy qurib saqlab qolgan nabotot va hayvonot namunalaridan boshqa jamiki jonzotlarni va o'simliklarni sovuq qirib tashlaydi. "Avesto" da bu qirg'inning sababi nima? Zardusht aytadiki, Yimaning gunohkorligi tufayli insoniyat abadiy yashash huquqidan mahrum bo'ldi.

Xuddi shu singari mifning motivini Kultigin bitiktoshida ko'rish mumkin. Bilga hoqon turkiy qavmlarga nasihat qilar ekan, davlatning yo'q bo'lib ketishiga ularning o'zlarini sababchi qilib ko'rsatadi, shu bilan birga, Tangri (xudo va osmon) ularning qilgan gunohlari – boshboshdoqlik, hoqonlarning yo'l-yo'riqlariga itoat qilmaganlari va o'zboshimchaliklari uchun jazolaganiga ham ishora qiladi.

1. To'fon haqidagi mif nima haqida hikoya qiladi?

2. Diniy mavzudagi kitoblarda bu motiv yana qanday shakllarda bayon etilgan?

3. Ushbu mif bugungi kun kishisiga nimalar haqida ma'lumot beradi?

3-Topshiriq. Quyidagi matnni o‘qib, savollarga javob bering.

Turk degan nom Turk hoqonligi davrida ilgari ham turkiy tilda so'zlashadigan, irqiy va urf-odat jihatidan bir-biriga o'xshash yoki yaqin turkiy hamda turkylashgan qavmlarning siyosiy birlashmasini bildirardi. Turk xoqonligi davrida bu jarayon o'z rasmiy maqomiga ega bo'ldi. Shuningdek, qadimgi turk davrida turkiy qavmlar yagona nom bilan *ko'k turklar* deb yuritiladigan bo'ldi. Ko'k turk – ilohiy turk deganidir. Turkiy qavmlar yaratgan mifga ko'ra, ular osmonni – ota, yerni ona deb tasavvur qilganlar. Shu bois o'zlarini ham osmon bolalari deb aytardilar va ko'k turk degan mifologik nom ularning rasmiy nomiga aylanib qoldi.

1. Ko'k turklar haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
2. Qaysi yozma yodgorliklarda ular haqida so'z boradi?
3. Turkiy xalqlar tarixi haqida ma'lumot beruvchi yana qanday adabiyotlar bilan tanishsiz?

“Budda anglagan haqiqatlar” keysi

Keys bayoni: Budda tarixiy shaxs sifatida talqin qilinadi. Tirik mavjudotlarni azob-uqubatlardan qutqarish Buddanining asosiy maqsadi bo'lgan. Budda - haqiqat najotkori demakdir. Uning asl nomi Siddxartxa. Bu “topshiriqni bajaruvchi” deganidir. Siddxartdaning tug'ilgan yili mil.ol. 642-448 yillar oralig'ida deb taxmin qilinadi. Otasi o'g'lining diniy tarbiya olishini istamadi. Otasi hayotning salbiy tomonlarini o'g'lidan yashirib, unga dabdabali hayotni muhayyo qildi. O'g'liga haqiqiy dunyoviy tarbiya berdi.

U saroydan uch marta tashqariga chiqib, uchta muqarrar yovuzlikni bilib oldi: bular – keksalik, azob-uqubat va o’lim edi. To’rtinchi marta saroydan tashqari chiqib, qashshoq rohibga duch keldi. Rohibning xotirjam va shod ekanini ko’rib, zaminiy yovuzliklarga qarshi dori-darmonni topdi. Anglaganlari haqida va’zlar o’qiy boshladi. Birinchi oliv haqiqat shundan iboratki, hamma narsa Azobdir: tug’ilish – azob, o’lim – azob, xastalik – azob, jamiki beqaror narsalar - azob. Ikkinchi haqiqat shuki, azobning sababi shahvatdir. Uchinchisi – shahvatdan xalos bo’lish azoblardan xalos bo’lishga olib boradi. To’rtinchisi – azoblardan xalos bo’lishga olib boradigan sakkiz yo’l yoki O’rta Yo’lni ko’rsatadi. Bular – Fikr, Tafakkur, Kalom, Faoliyat, Hayot tarzi, Tirishqoqlik, Diqqat-E’tibor, Mushohada. To’rtala haqiqat Buddaning chinakam maktubini aks ettiradi.

Keys savoli: Buddha anglatgan haqiqatlat haqida sizning fikrungiz qanday? Hayotdago jamiki azobning sabablari sizningcha nimada? Azoblardan xalos bo’lishga olib boradigan yo’llar-chi?

“AVESTO” MAVZUSI YUZASIDAN NOODATIY TEST

1. ”Avesto” ga oid to’g’ri ma’lumotlarni belgilang.

- 1) ”Avesto” zardushtiylik dinining muqqadimasi hisoblanadi.
- 2)”Avesto dagi ma’lumotlar mill. av. 3000-2000 yillarga oid
- 3)”Avesto” ning to’liq shakli Iskandar podshoh xazinasida saqlanar edi.
- 4) Beruniy ma’lumotiga qaraganda ”Avesto”ning hajmi 12 ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan.
- 5) ”Avesto”ning qismlari visparad nomi bilan yuritiladi.
- 6) Iskandar otashxonalarini vayron qilganida ”Avesto”ni yondirib yuborgan.

7)"Avesto" 35 nask edi.

8) Beruniy ma'lumotiga ko'ra, Iskandar otashxonalarini vayron qilganidan keyin majusiylar qo'lida "Avesto"ning 12 nask chamasi qolgan.

a)	b)	d)	e)
----	----	----	----

2."Avesto"da Mazdayasna imonini kim necha marta aytishi kerak?

1.	Ikki do'st	A	80
2.	Yurtdoshlar	B	20
3.	Emakdoshlar	D	30
4.	Er-xotin	C	60
5.	Shogirdlar	E	70
6.	Shogird va ustoz	F	40
7.	Kuyov va qaynota	I	90
8.	Aka va uka	H	50
9.	Ota va o'g'il	G	1000
10.	Ikki yurt	J	100

1. 2. 3. 4. 5. 6. 7. 8. 9. 10.

3."Avesto"da berilgan ta'riflarning kimga tegishli ekanini belgilang.

1.	Varaxran	A	Muqaddas ruh, Zuhal yulduz
2.	Mitra	B	Dinda yaratuvchi, yakkayu yagona xudo
3.	Axura Mazda	D	Yulduz bezakli Xudoning ne'mati
4.	Xaoma	C	G'azabnok qobon misol, serjahl o'tkir tishli, xanjardek qoziq tishli
5.	Axuna Varya	E	Yuz ming tuman ko'zli
6.	Bushyasta	F	Tik qomat, uyg'oq, o'tkir ko'z

			shijoatkor
7.	Asha	I	E’tiqod duosi
8.	Rashnu	H	Dangasalik timsoli
		G	Haqiqat timsoli
		J	Bo’ydor, qudratli

1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.
----	----	----	----	----	----	----	----

4. “Avesto” da Axriman devga berilgan tavsiflarni to’g’ri juftlang

1 Axriman dev nola qiladi A Bug’doy yerga ekilgach

.

2 Axriman dev bezovta B Bug’doy xirmonga
bo’ladi to’plangach

3 Axriman dev o’kirib D Toqat qilolmay jon beradi
yig’laydi

4 Bug’doy non qilib E Bug’doy o’sib, boshoq
yopilgach, Axriman bo’lgach
dev...

1.	2.	3.	4.
----	----	----	----

5. “Avesto”ning 4 qismini ta’riflari bilan to’g’ri juftlang

1	`Gohalar	A	2-qism
2	Visparad	B	1-qism

3	Yashtlar	D	3-qism
.	.	E	4-qism

1.	2.	3.	4.
----	----	----	----

6. ”Avesto” dagi so’zlarning ma’nosini to’g’ri juftlang.

1	Ashah	A	Rostlik, to’grilik, haq, haqiqat
.	.	B	Ilohiy farog’at jannat manzillari
3	Choshtgoh	D	Bepoyon farog’at poygohi
.	.	E	Haqiqat

1.	2.	3.	4.
----	----	----	----

ADABIYOTLAR:

1. Vohidov.R, Eshonqulov.H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg`armasi. 2006.
2. O’zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. -T.:1978.
3. Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. - T.:1996.
4. Mumtoz adabiyot namunalari. 1-jild. Nashrga tayyorlovchilar: H.Boltaboyev, N.Rahmonov. -T.: O’zMU nashriyoti. 2003.
5. Eshonqulov.R. Mumtoz adabiyot- hikmat xazinasi. Buxoro, 2001.
- 6.A.Abdurahmonov. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. -T.: 2005.
7. Mallayev.N, O’zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob.- T.:1963.
8. www.ziyonet.uz

MAVZU: X-XII ASRLARDAGI TURKIY TILDAKI DIDAKTIK ADABIYOT

1- Topshiriq. Mavzuni tavsiya etilgan o‘quv va badiiy adabiyotlardan o‘rganib, quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. Didaktik adabiyot deganda nimani tushunasiz? Sharq didaktik adabiyoti namunalaridan qaysilarini o‘qigansiz?
2. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari boshqa didaktik asarlardan nimasi bilan farq qiladi?
3. Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq” asari bugungi kun o‘quvchisiga nima bera oladi?
4. Ahmad Yassaviy hikmatlari diniy va didaktik adabiyotga xos bo‘lgan qanday jihatlarga ega?
5. G‘arb va Sharq didaktik adabiyotida, sizningcha, qanday umumiylar farqli jihatlar mavjud? Ularni o‘qigan asarlarining misolida tushuntirishga harakat qiling
6. XXI asr kishisiga didaktik adabiyot bugun qanchalik zarur deb o‘ylaysiz?
7. Bugun yaratilayotgan san’at va adabiyot asarlarida didaktik tushunchalar, qarashlar qanchalik o‘z aksini topgan?

“O‘gdulmishning O‘zg‘urmishga o‘giti” keysi

Keysning bayoni: O‘zg‘urmish – zohid, bu dunyodan yuz o‘girgan. U “ko’ngil sevgan” a‘moli bilan yashaydi. U O‘gdulmishga, dunyo senga o‘zini sevdirib qoyibdi, hamma ayblari senga fazilat bo‘lib ko’rinibdi, deya ta‘na qilib, dunyoning va bu dunyoda boylikka mukkasidan ketgan odamlarning quyidagi ayblarini birma-bir ko’rsatadi:

-dunyo quti Xudodan uzoqlashtiradi, qut - din ofatidir;
-bu bevafo olam – o’tkinchi, boylik kibr-havo ortishiga olib keladi, bu dunyo nima bergan bo’lsa, tezda yana qaytib oladi;
- dunyo– ko’lanka, izidan borsang, qochadi, sen qochsang, izingdan boradi;
-bu dunyoning qiliqlari –jafo, qilmishlari – bevafolik, begi bilan uch oy ham turmaydi;
-bu dunyoning quyidagi uchta narsadan boshqa narsasi yo’q: biri – halol, ikkinchisi – shubha, uchinchisi – haromdir;
-bu dunyoda odam – g’ofildir;
-xotin, o’g’il-qiz tashvishini tortmoq mashaqqat bo’ladi, kishi kuchini uzadi;
-bu dunyoning yovi uch narsadir: halovat bilmaslik, nafsga qul bo’lish, diyonatga xiyonat qilish;
-bu dunyoning narsasi sho’r suvga o’xshaydi, odam qancha ichsa ham qonmaydi, tili namlanmaydi;
-dunyo ishi sarobdir, kishi tutayin deb qo’l uzatsa, yo’qotadi.

Keys savollari: O‘g‘dulmishning fikrlariga qo‘shilasizmi? Siz g‘ofillikni qanday tushunasiz?

“Ahmad Yugnakiy o‘gitlari” keysi

Keys bayoni: Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq” asarida dunyoga muhabbat qoyish eng katta xato ekani, saxovatning samarasiyu baxillikning oqibatlari, tavozelik manfaati, kibrilik va harislikning zarari to’g’risidagi o’gitlardan iborat. Dunyo bir yolg’onchi, sarobga o’xshaydi, yuzini bir ko’rsatib, keyin qochadigan narsa. Bu olamda insondan qoladigan yaxshi nomdir, yaxshi nom qoldirish uchun takabburlikdan, manmanlikdan tamomila uzoq bo’lish, tavozega amal qilish, dunyo moliga ruju qoymaslik. Inson mol-dunyosigia ishonib o’zini kibor tutadi, ulug’likka qo’l cho’zishining sababi ham mol –dunyosi tufaylidir. Adib Ahmad mana shu illatlardan xalos bo’lishga da‘vat qiladi. Mol –mulk, boylik hech kimga vafo qilmaganini, narigi dunyoga hech narsasiz yalang’och ketishi haqidagi azaliy hikmatlarni baytlariga singdiradi. Odam Ato bilan Momo Havoni misol qilib keltiradi.

Keys savoli: Yugnakiyning fikrlariga qo’shilasizmi? Dunyoga muhabbat qo’yish nimalarda ko’rinadi? G’arb adabiyotida ham shu tarzdagi fikrlar uchraydimi yoki bu faqat Sharq adabiyotiga xosmi?

2-Topshiriq. Matnni o‘qib chiqing va savollarga javob bering.

Turkistondagi darveshlik-qalandarlik tarixi Ahmad Yassaviydan boshlanadi. Ular islom g’oyalari bilan sug’orilgan hikmatlarni dunyoning turli tomoniga yoydilar. Turkiyalik mutaxassislar Onado’li sarhadlarining musulmonlashuvi, bu o’lkada turk islom davlatining maydonga kelishida qalandarlar katta xizmat qilgan deydilar. Qalandarlar mol-dunyo, davlatu sultanat, kibru havoni tark etib, faqirona umr o’tkazishga harakat qildilar. Zamonida eng ilg’or ijtimoiy harakatga aylanib, atrofiga jamiyatdagi sog’lom kuchlarni to’plagan. Masalan, 1898 yilgi Andijonda yuz bergan milliy ozodlik qo’zg’olonining harakatlantiruvchi kuchi qalandarlar edi. Ular faqat

Allohga hamdu sano bilangina emas, balki har qanday zulmga qarshi kurash bilan ham shug'ullanishardi. Qalandarlik harakatining chor hukumati tomonidan rasman ta'qiqlanganligi ham bejiz emasdi.

Ahmad Yassaviyning bizga yetib kelgan asari «Devoni hikmat»dir. U «Faqirnoma» deb atalmish so'zboshi bilan boshlanadi. «Faqirnoma» faqirlilik ta'rifiga bag'ishlangan. So'fiylikda mol-dunyoga hirs qoyish tanqid qilinib, faqirlilik ulug'lanadi. Ammo faqirlilik qashshoqlik emas. Faqirda ortiqcha boylik bo'limganidek, o'zgaga muhtojlik ham yo'qdir. Qashshoq esa kunini ham ko'rolmaydigan yo'qsuldir. Hazrati Muhammad: «Al-faqr u faxri» (Faqirlilik faxrimdir), -deganlar. Rivoyat qiladilarki, payg'ambarimiz me'rojga chiqqanlarida Alloh taolo u kishiga faqir qiyofasida ko'ringan ekan. Faqirlilikning bunday ulug'lanishida ma'no bor. Chunki mol-dunyoga hirs qoyish, birinchidan, odamni harom-halolni farqlamaslikka undaydi. Bunda birovning haqqiga xiyonatga, zulm-zo'ravonlikka yo'l ochiladi. Ikkinchidan, mol-dunyo egasida kibru havo, manmanlik paydo qiladi. Shu sababli, mumtoz adabiyotimizda faqirlikkalohida e'tibor berilgan. Bu borada tegishli hadislarni sharhlash va badiiy ifodalash yo'lidan borilgan. Mumtoz adabiyotda eng ko'p tasvirga olingan hadislar: «Har ummat uchun bir fitna sababi bor. Ummatimning fitnasi mol-dunyodir», «Faqirlar bilan birga o'tirib-turish kamtarlik va ustun bir fazilatdir», «Allohim, meni faqir o'laroq yashat va faqir o'laroq o'ldir» kabilardir. Xullas, «faqir», tasavvufda mol-dunyoga o'ch bo'lmaslik, zohiran yo'qsul hayot kechirish, Ollohga etishish uchun qilinadigan hatti-harakat va bosib o'tiladigan maqomlarni ifodalovchi atama bo'lib qoldi. «Faqirnoma»da mana shu maqomlar aks ettiriladi.

1. Qalandarlik, faqirlilik tushunchalarini qanday tushunasiz?
2. "Faqirnoma" da nima haqida so'z boradi?
3. Bugungi kunda faqir, faqirlilik, faqirona so'zlarini qanday tushuniladi?

4. Faqirlilikning qashshoqlikdan farqi nimada?

TESTLAR:

1. To‘g‘ri javobni belgilang.

- A) Kuntug‘di –Shoh- oy; B) Oyto‘ldi- vazir -charog‘onlik;
- S) O‘gdulmish -vazir o‘g‘li- quyosh
- D) Vazir qarindoshi- sergaklik

2. ...Uquv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lar,

Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik bo‘lar. misralari qaysi asardan olingan?

- A) “Hibat ul haqoyiq” B) “Bilga hoqon”
- S) “Qutadg‘u bilig” D) “Hikmatlar”

3. To‘g‘ri javobni belgilang.

- A) Davlat -Kuntug‘di- Shoh; B) Adolat- - Oyto‘ldi –vazir;
- S) Aql -O‘gdulmish -vazir o‘g‘li: D) Qanoat- Oyto‘ldi-sergaklik

4. To‘g‘ri javobni belgilang.

- A) Adolat - sergaklik; B) Davlat - charog‘onlik;
- S) Aql – oy; D) Qanoat – sergaklik

5. Qaysi asar uchun uning muallifi «eshik og‘asi» lavozimiga munosib ko‘rilgan?

- a) «Devoni lug‘atit-turk»; b) «Qutadg‘u bilig»;
- c) «Hibat ul-haqoyiq»; d) «Qissasi Rabg‘uziy».

6. «Qutadg‘u bilig» nima degani? Nega adib asarini shu nom bilan atagan?

- a) saodatga eltuvchi bilim; b) bilim uchun kurash;
- c) bilim haqida qissa; d) baxt keltiruvchi bilim.

7. «Hibatul haqoyiq» asari qanday asar?

- a) pandnoma; b) fojea; c) doston; d) ertak.

8. Navoiy o‘zining qaysi asarida Ahmad Yugnakiy haqida fikr bildirgan?

- a) “Nasoyim ul-muhabbat”; b) “Tarixi muluki Ajam”;
c) “Majolis un-nafois”; d) “Xamsa”.

9. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari necha bobdan necha baytdan iborat?

- a) 11 bob, 252 bayt; b) 14 bob, 256 bayt;
c) 24 bob, 252 bayt; d) 21 bob, 256 bayt.

10. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari nechanchi bobdan xulosalanadi?

- a) 15-bobda; b) 14-bobda; c) 24-bobda; d) 11-bobda.

11. Quyda berilgan asarlarni kimlarga tortiq etilganligini to’g’ri belgilang.

1	Qutadg'u bilig	A	Nosiriddin Tog'bog'a
2	Devoni lug'ati turk	B	Misr amiri Batsasbekka
3	Hibat ul-haqoyiq	C	Tavg'ach ulug' Bug'ro
4	Qissayi Rabg'uziy	D	Muhammad Sulton
5	Guliston bit-turkiy	E	Dod Sipohsolorbekka
6	Latofarnoma	F	Muhammad al-Muqtadoga

1- 2- 3- 4- 5- 6-

12. Asarga berilgan tariflarni moslang

- A. Turkcha-arabcha lug'atning 1-namunasi.
B. O’z zamonasining tafakkuri, hikmati va falsafasini aks ettirgan qomusiy manbadir.

- C. Bu asar qashqarcha til bilan bitilgan, marifat tashviqi yetakchi o'rinda.
- D. Payg'ambarlar haqidagi qissalardan iborat, qissalar asosini tarixiy voqealar tashkil qiladi.
- E. O'zbek dostonchiligi ravnaqi tarixini boyitgan.
- F. Muhabbatnomaga javob-nazira tarzida yozilgan.
1. Hibat ul-haqoyiq. 2. Qutadg'u bilig 3. Suhayl va Guldursin
 4. Latofatnoma 5. Devoni Lug'ati turk 6. Qissasi Rabg'uziy.

1-	2-	3-	4-	5-	6-
----	----	----	----	----	----

13. Quyidagi asarlarning har biriga tegishlisini belgilang.

1	Qutadg'u bilig	A	240 ga yaqin she'lar bor
2	Hibatul haqoyiq	B	72 bobdan iborat
3	A.Yassavi "Hikmatlar"	C	100 dan ortiq dostondan iborat
4	Qissayi Rabg'uziy	D	3 ta nusxasi: Namangan, Qohira , Hirot
5	Suhayl va Guldursin	E	14 bob 254 baytdan iborat
6	Muhabbatnoma	F	82 bob 164 misra
7	Shohnoma	G	10 bobdan iborat

1-	2-	3-	4-	5-	6-	7-
----	----	----	----	----	----	----

14. "Qutadg'u bilig" asarida 4 qahramon ideal orzu timsoli sifatida gavdalantiriladi. Ularni timsollari bilan moslashtiring.

1	Kuntug'di	a	Aql
2	Oyto'ldi	b	Qanoat
3	O'gdulmish	s	Adolat
4	O'zgurmish	d	Baxt-saodat

Javob :

1 -	2 -	3 -	4 -
15. “Qutadg‘u bilig” asarini qaysi xalq qanday nom bilan ataganini toping.			
1 Adab ul-mulk		a Turonliklar	
.			
2 Amin ul-mamlakat		b Ba’zilar	
.			
3 Ziynat ul-umaro		s Chinliklar	
.			
4 Shohnomai turki		d Mochinliklar	
.			
5 Qutadg‘u bilig		e Sharq elining kattalari	
.			
6 Pandnomai mulk		g Eronliklar	
.			

Javob :

1 - 2- 3 - 4 - 5 - 6 -

ADABIYOTLAR:

- 1.Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sano – standart, 2018.
2. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 1-jild. –T.: Fan, 1977.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
4. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonи lug‘atit turk. /Tarjima va nashr. S.Mutallibov. –T.: 1960-61, 1963.
5. Hayitmetov A. Adabiyotshunosligimiz ufqlari. –T.: O‘qituvchi, 1997. 76-78-betlar.

- 6.** Ahmad Yugnakiy. Hibat ul haqoyiq. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
- 7.** Mahmudov K. Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari haqida. –T.: Fan, 1982.
- 8.** Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. /Q.Karimov tabdili. –T.: Fan, 1972.
- 9.** Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. /prof. B.To‘xliyev tabdili. –T.: CHo‘lpon, 1990.
- 10.** Karimov Q. Ilk badiiy doston. –T.: Fan, 1972.
- 11.** To‘xliyev B. Yusuf Xos Hojib va uning «Qutadg‘u bilig» dostoni. –T.: Fan, 1993.
- 12.** Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to‘rtlik va marsiya. –T.: Fan, 2006.
- 13.** Xoja Ahmad Yassaviy. Umring yeldek o‘taro. – T.: Muharrir, 2020.

14.MAZU: XIII-XIV ASRLAR O'ZBEK ADABIYOTI.

1-Topshiriq. Mavzuni tavsiya etilgan o'quv va badiiy adabiyotlardan o'rganib, savollarga yozma javob bering.

1. Mo‘g‘ullar istilosи davridа ijod qilgan qaysi ijodkorlarni bilasiz?
2. Pahlavon Mahmud ijodi, uning o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rni haqida fikr bildiring.
3. «Qissasi Rabg‘uziy» asaridagi qissa va hikoyatlarning mazmun-mohiyatida nimalar yotadi? Bu asarni nima uchun o‘rganish lozim?
4. Asarda urf-odat va rasm-rusumlarga aloqador qanday tushunchalar bor?
5. Bugungi kun kishisiga bu kabi asarlarni o‘qishi nima beradi? Aynan sizga bu asarlarni o‘qish nima berdi?

2-Topshiriq. Ushbu she’riy parchani o‘qib, Odam alayhissalom qissasi haqida ma’lumot bering.

QISSASI ODAM SAFIY ALAYHIS-SALOM

Haq yaratdi tangsuq Odamni tafiz yer ko‘rkidin,
O‘zga surat tuzdi andog‘ ajun ichra ilkidin.
Taxtini ko‘turub farishta ujmoh ichra kivurub,
Tezginurda chiqmadilar hargiz aning erkidin.
Chiqdi havvo birla bo‘lub xush tana’um qildilar,
Ichtilar ujmoq sharobin,yedilar et erkidin.
Bildi asmo ilmini ul etu berdi belguluk,
Barcha tillar birla so‘zlar tozi forsiy turkidin.
O‘rkadi besh yuz yil anda jufti birla ovunub,
Ichi sharbat sig‘raqinda yedi ne’mat tarkidin.
Mundi ujmohning buroqin kezdi aning tegrasin,
Hulla kizdi egniga ham boshg‘a urdi bo‘rkidin.

Ozdi Iblis makri birla biruk erdi yolg‘uzin,
Ikki bug‘doy yedi chiqti sekkiz ujmoh mulkidin.

**3-Topshiriq.Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarini o‘qib
chiqing va quyidagi savollarga yozma javob bering:**

- 1.”Omonatga xiyonat qilmaslik olajanob fazilat” haqida qissasi Luqmon rahmatullohida nima deyilgan?
- 2.Axloqsizlikning jamiyatga salbiy ta’siri. Nuh alayhissalom va Lut alayhissalom qissalarida nima deyilgan?
- 3.Payg‘ambarlar nega dunyoga keladilar? Ularning vazifalari nima bo‘lgan?
- 4.Jolut alayhila’na qissasidan nega “yaxshilik qilgan yetar murodga, yomonlik qilgan qolar uyatga” degan xulosa chiqadi?

**4-Topshiriq.Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarini o‘qib
chiqing va quyidagi topshiriqlarni bajaring:**

- 1.“Qisasi Rabg‘uziy” asarining yaratilish tarixi,mavzusi, asar tuzilishi haqida ma’lumot bering.
- 2.”Qissasi as’hobu qahf” ni o‘qing. “Dilozordan hamma bezor” degan maqolning unga nima aloqasi bor?
- 3.”Qissai Yusuf Siddiqni o‘qing.” Sharm hayo katta davlat” degan fikrning unga aloqasi bormi?
- 4.Ibrohim SAV va Sora, Yusuf SAV va Zulayho, Muhammad SAV va Xadicha sevgi hikoyatlarida sevgi qanday tasvirlangan?

5-Topshiriq. Muhammad alayhissalom qissasidagi Abu Jahl kirdikori haqidagi rivoyatni o‘qing va undan qanday xulosa chiqarganingizni ayting

6-Topshiriq. Asarda 33 payg‘ambar, 4 sahaba, 7 tarixiy shaxs va adabiy qahramonlar haqida so‘z boradi? 7 tarixiy shaxsni sanab bering.

7-Topshiriq. Nuh alayhissalom qissasida kemaga chiqqan qaysi hayvonlar haqida gapirilgan? Asarda qanday qush va jonivorlar tilga olinadi?

“Qissasi Rabg‘uziy” asari bo‘yicha test savollari

1.”Qissasi Rabg’uziy”da Allah taolo yaratgan mo’jizalarni hafta kunlari bilan moslikda belgilang .

1.Yakshanba	A. Oy, quyosh, yulduz
2.Dushanba	B. Odam
3.Seshanba	D. Qurt-qumursqa, farishtalar
4.Chorshanba	E. Suv, shamol, bulut, daraxtlar
5.Payshanba	F. Jannat, do’zax, rahmat va azob farishtalari
6.Juma	G. Osmonlar

Javob:	1-	2-	3-	4-	5-	6-
--------	----	----	----	----	----	----

2.”Qissasi Rabg’uziy”da berilgan osmon qavatlarini o’z nomlari bilan joylashtiring.

1. Ilk qavat	A. Arib
2. Ikkinci qavat	B. Qaydam
3. Uchinchi qavat	D. Mo’un
4. To’rtinchi qavat	E. Ratqo
5. Beshinchi qavat	F. Rafiq
6. Oltinchi qavat	G. Ruq’ a

Javob:	1-	2-	3-	4-	5-	6-
--------	----	----	----	----	----	----

--	--	--	--	--	--	--

3. Qissalar nomlari va ulardagi qahramonlarni to'g'ri juftlang.

1. Qobil va Hobil qissasi	A. Shayx Shaqiq bo'zchi
2. Shis s.a.v qissasi	B. Ahnud
3. Idris s.a.v qissasi	D. Abudo
4. Nuh Nabiy s.a.v qissasi	E. Avj ibn Unuq

Javob :	1-	2-	3-	4-
---------	----	----	----	----

4. "Qissasi Rabg'uziy" asaridagi qissalar va undagi obrazlarni belgilang.

1.Abdulmug'iz	A. Qobil va Hobil
2.Amat-ul Mug'isa	B. Nuh s.a.v
3.Iqlimo	
4.Abudo	
5.Yashkir	
6.Shaxmo binti Anursh	
7.Som	

Javob:	A-	B-
--------	----	----

5."Qissasi Rabg'uziy"dagi Nuh s.a.v qissasida keltirilgan jonzotlarni bir-biri bilan dushmanligini to'g'ri tartibda belgilang.

1.Arslon	A. Kabutar
2.Bo'ri	B.Sigir
3.Mushuk	D.Qo'y

Javob:	1-	2-	3-
--------	----	----	----

6. Nuh alayhissalom o'g'illariga vasiyat qilgan yerning turli tomonlarini to'g'ri moslikda belgilang.

1. Som	A. Mag'rib
2. Xom	B. Mashriq
3. Yofas	D. Jahonning o'rtasi

Javob:	1-	2-	3-
--------	----	----	----

7. “Qissasi Rabg’uziy”asarida quyida keltirilgan yil voqeliklari bilan payg’ambarlar nomlarini to'g'ri taqqoslang.

1.Odam alayhissalom	A.4 yil samidlar bilan yashagan.
2.Nuh alayhissalom	B.7 yil butga soqchi bo'lgan
3.Ibrohim alayhissalom	D.200 yil jufti bilan ayriliqda yashagan.
4.Solih alayhissalom	E.100 yoshida payg’ambar bo’lgan

Javob:	1-	2-	3-	4-
--------	----	----	----	----

8.”Qissasi Rabg’uziy”dagi quyida nomlari keltirilgan payg’ambarlarning o'g'illari bilan to'g'ri belgilang.

A. Nuh s.a.v	1. Ismoil
B. Ibrohim s.a.v	2. Iyaz
D. Ishoq s.a.v	3. Yaqub
	4. Ishoq
	5. Som
	6. Xom
	7. Yofas

Javob:	A-	B-	D-
--------	----	----	----

9. “Qissasi Rabg’uziy” da keltirilgan “Ibrohim alayhissalom qissasi”da 72 xil til hosil bo’lgani bayon qilingan. Quyidagi tillar sonini urug’lar bilan moslikda joylashtiring.

1. Som	A. 18
2. Xom	B. 36
3. Yofas	D. 18

Javob:	1-	2-	3-
--------	----	----	----

10.”Qissasi Rabg’uziy” asaridagi qissalar va ularda ishtirok etgan qahramonlar nomlarini belgilang.

A. Solih s.a.v qissasi	1. Yahudo
B. Yusuf s.a.v qissasi	2. Zulayho
	3. Xanda ibn Umar
	4. Malik Za’r
	5. Qosur
	6. Zaum

Javob:	A-	B-
--------	----	----

ADABIYOTLAR:

1. Sirojiddinov SH. O’zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – T.: Yangi asr avlod, 2011.
2. Rahmonov N. O’zbek adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘lanma. – T.: Sano – standart, 2018.
3. Vohidov.R., Eshonqulov.N. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - T.: 2006.102-119 betlar.

4. Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. 1-2-kitob. –T.: Yozuvchi, 1990-91.
5. Fozilov E. Rabg‘uziy va uning «Qissasi Rabg‘uziy» asari. 1-kitob, 1990.
6. Rasul X. Go‘zallik va oljanoblik qissasi. –T.: Mangu buloqlar, 1986.
7. Pahlavon Mahmud. Ruboilyar. –T., 1979.
8. Ahmedov.B. Tarixdan saboqlar. T., 1994.
9. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr, 2009. 281bet.
10. Karomatov H. Qur’on va o‘zbek adabiyoti. – T.: Fan, 1993.

MAVZU: TEMURIYLAR DAVRI O’ZBEK ADABIYOTI

1-Topshiriq. Mavzuni tavsiya etilgan o‘quv va badiiy adabiyotlardan o‘rganib, quyidagi savollarga yozma javob bering

1. Alisher Navoiyni shaxs sifatida o‘rganish sizga nima berdi?
2. Alisher Navoiyni jahon adabiyotidagi, xususan Sharq adabiyotidagi o‘rni haqida nima deya olasiz?
3. Navoiyning qaysi asarlarini o‘qidingiz? Ularni o‘qib o‘zingiz uchun nima oldingiz yoki nimalarni anglay olmadingiz?
4. Nega Navoiy asarlarini tushunish qiyin? Ularni tushunish uchun sizningcha nima qilish kerak?
5. Navoiy asarlarida sizga qattiq ta’sir qilgan narsa nima?
6. Navoiyni shaxs va ijodkor sifatida qaysi jihatlarini ayniqsa o‘rganishimiz kerak deb o‘ylaysiz?
7. Temuriylar hukmronligi davrida ijod qilgan yana qaysi ijodkorlarni bilasiz? Ularning qaysi asarlari bilan tanishsiz?
8. Navoiy davrida adabiyotda aks ettirilgan qaysi mavzular yoki muammolar bugun ham dolzarbligini yo‘qotmagan?

“Nafs va ishq “ keysi

Keys bayoni: Nafs insonning juda qudratli, xavfli dushmani. Unga tobe inson ma'naviy va jismoniy tubanlikka, halokatga mahkum. Shuning uchun Navoiy "*Nafs itin qilsang zabun olamda yo'q sendek shujo*" deb yozsa, "Qisasi Rabg'uziy"da bir nafsnинг ishini yetmish shayton qilolmaydi deb ta'kidlanadi. "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod olishib yenggan ajdaho, Axraman dev, temir odam shunchaki xayoliy, afsonaviy obrazlar emas, balki Farhodning ichki olamidagi nafsoniy istak, shaytoniy intilishlarning ramziy timsollaridir. Farhodning oshiqligi uni bu nafs lashkari bilan kurashga otlantirdi, ishq unga kuch, sabot va iroda ato etdi. Ko'rinaradiki, nafsnı yengish quroli — bu ISHQ ekan.

Keys savoli: Bu fikrga qo'shilasizmi? Ishq nafsnı yengish vositasi bo'lishi uchun oshiq o'zida qanday sifatlarni shakllantirishi zarur?

Mini keys: “Farhod va Shirin ” dostoni

1. Asar voqealari qanday boshlanadi?
2. Dostonda Farhodning tug'ilishi nimaga qiyoslanadi?
3. Farhodning ustozlari kimlar?
4. Farhodning qalbiga ishq binosini qurishni o'rgatgan ustoz kim?
5. Farhodning qalbidagi ishq binosini naqshlashni o'rgatgan ustoz kim?
6. Farhodning qalbidagi toshdan-da qattiq nafsnı yengishni o'rgatgan ustoz kim?
7. Farhod yenggan tilsimlar aslida nima edi?
8. Bu bo'lg'ay dard-u ishq oyini, vah-vah?!

Vafo-u mehr sharti, ollah-ollah?!

Kishi ishqida zor o'lmoq bu bo'lg'ay?!

G'amidan beqaror o'lmoq bu bo'lg'ay?!

Farhodning bu ta'nalari kimga va nima uchun qaratilgan?

9. Xusrav Farhod dialogida Xusrav yengilishi sababi nimada deb o'ylaysiz?

10. Alisher Navoiy Farhod timsoli orqali o'zining qanday fikrlarini ilgari surgan?

KEYS: A.Navoyning “Saddi Iskandariy” dostoni

Keys savollari:

1. Yusuf Xos Hojib asaridagi Kuntug‘di bilan Oyto‘ldi suhbatlari davomida qo‘llangan ramzlarni eslang. Ular bilan «Saddi Iskandariy» dagi ramzlarning qanday o‘xshash va farqli jihatlarini tasavvur qildingiz.
2. Dostonning boblari haqida ma’lumot bering.
3. Dostonda olimlarga qanday munosabat bildirilgan haqida o‘z mulohazalaringizni bildiring.
4. Asarda qanday mavzular qalamga olingan?
5. Asarda mavzular mazmunini yoritish tartibi qanday?
6. Dostonda Iskandarning sarguzashtlari ayrim epizodlar tariqasida keltiriladi.Undan keyin falsafiy-didaktik mazmundagi mulohazalar o‘rin oladi. Yaxlitlikning uchinchi qismini nimalar tashkil qiladi?
7. Dostonda Iskandarning harbiy yurishlari qisman aks etgan bo‘lsa-da, u jangnoma emas. Shunga qaramasdan asar tilida harbiy so‘z va atamalar, tushunchalar nisbatan kengroq o‘z aksini topganligi sababini izohlang.
8. Doston qanday boshlanadi?
9. Iskandarning ustozlari?
10. Faylaqus vafot etadi. Iskandar taxtga o‘tirishdan voz kechishni o‘ylab turganida, otasining qaysi vasiyati sabab taxtni qabul qiladi.
11. Xiroj talab qilib kelgan elchilarga Iskandarning javobini izohlang.
12. Doroning Iskandarga jo‘natgan narsalari va ularga Doro elchisi tomonidan berilgan ta‘rifni izohlang.
13. Doroning sovg`alariga Iskandarning ta‘rifini izohlang.
14. Iskandar kakliklar voqeasidagi yakundan xursand bo‘ladi. Buning sababini izohlay olasizmi?
15. Doroga xiyonat qilgan vazirlarga munosabatingiz?

16. Doroning Iskandarga vasiyati va bu vasiyat ijrosi haqida fikrlang.
17. Iskandar yurtimizdagi qaysi tarixiy asarni bunyod etganligi bayon etiladi?
18. Mallu ustidan qozonilgan g’alaba nimani isbot qildi deb o’ylaysiz?
19. Iskandarning ilm ahllariga munosabati haqida gapiring.
20. Iskandarning vasiyatiga munosabat bildiring.

Keys vaziyat: Alisher Navoiy nima sababdan Isdkandarniadolatli va donishmand shoh sifatida tasvirlagan deb o’ylaysiz?

Temuriylar davri adabiyoti boyicha testlar.

1. Temuriylar davrida ijod etgan ijodkorlar va ularga tegishli asarlarini belgilang?

1	Qutb Xorazmiy	A	Latofatnama dostoni
2	Xo’jandiy	B	Yusuf va Zulayho dostoni
3	Yaqiniy	C	Xusrav va Shirin dostoni
4	Durbek	D	O’q va yoy munozarasi

Javob	A	B	C	D
:				

2. Amir Temur haqida yozgan mualliflar va ularning asarlarini aniqlang?

1	Mirxon va Xondamir	A	“Temurnoma”
2	Salohiddin Tashkandiy	B	“Ravzat us-saf”
3	Nizomiddin Shomiy	C	“To’rt ulus tarixi”
4	Mirzo Ulug’bek	D	“Zafarnoma”

Javob	A	B	C	D

--	--	--	--

3. Quyidagi xorijlik mualliflarning Amir Temur haqida yozgan asarlarini qayd eting

1	Rui Gonzales de Klavixo	A	Tamerlan
2	Marsel Brion	B	Ajoyib al-maqdur fiy tarixi Taymur
3	Ahmad ibn Arabshoh	C	Samarqandga sayohat kundaligi
4	Foma Mesopskiy	D	Temur va Temur tarixi
Javob			

4.Ijod hamda ilm-fan bilan shug'ullangan temuriy shahzodalar va ularning faoliyatiga doir faktlarni tartibi bilan juftlang.

1	Shohrux Mirzo	A	Uning ilmiy merosi asosan «Ziji jadidi Ko'ragoniy» astronomik jadvali sanaladi.
2	Mirzo Ulug'bek	C	Undan bizgacha she'rlar devoni va «Risola» asari yetib kelgan
2	Husayn Bayqaro	D	Devoni g'azal, she'r, ruboiy va qit'alari, muammo va fardlaridan iborat.
2		E	XV asrning 2-yarmida Xurosonda ilm-fanning rivojlanishi uchun zamin yaratgan.
		F	Shoirlarga rahnamolik qilgan, turkiy tilda she'rlar yozgan. undan bizgacha she'rlar devoni va «Risola» asari yetib kelgan

3		G	Shuningdek tibbiyot va musiqa bilan qiziqqan, she'rlar ham yozgan.
		H	Uning hukmronligi davrida o'ziga xos uyg'onish (renessans) bo'ldi
4	Zahiriddin Bobur	I	Harb san'ati va musiqaga oid asari bizgacha yetib kelmagan.
		J	Uning ijodi ishq-muhabbat, visol va hijron mavzulari yetakchilik qiladi.

Javob

5. Mirzo Ulug'bek yozgan asarlar hamda ularning mavzusini to'g'ri ko'rsatilgan variantlarni belgilang.

1	Risolayi Ulug'bek	A	astronomiyaga oid;
2	"Ziji jadidi Ko'ragoniy"	B	matematikaga oid;
3	Tarixi arba' ulus	C	yulduzlarga bag'ishlangan
4	Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola	D	tarixga oid

Javob	1	2	3	4
-------	---	---	---	---

6. Quyida berilgan ruboilyarni muallifi bilan joylashtiring.

1	Umar Xayyom	a	<i>Uch yuz ko'hiqofni kelida tuymoq, Dil qonidin bermoq falakka bo'yoq. Yoinki bir asr zindonda yotmoq, Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq.</i>
2	Sa'diy Sheroziy	b	<i>Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi. Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.</i>

			<i>O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim. YO Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.</i>
3	Zahiriddin Muhammad Bobur	s	<i>G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish, El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish. Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa, Bulbulg‘a tikondek oshiyon bo‘lmas emish.</i>
4	Pahlavon Mahmud	d	<i>Bir qo‘lda tutib Mus‘hafu bir qo‘lda-chi jom, Gah mardi halolmizu gah mardi harom. Bizdirmiz o‘sha gumbazi niliy tagida Na kofiru mutlaq, na musulmoni tamom.</i>
5	Alisher Navoiy	ye	<i>Shohdir o‘sha bevafo ko‘nglim taxtida, Sham elga biroq alangadir raxtimda. Ul barcha bilan o‘ng-u, faqat men ila ters, Yo‘q aybi uning, gunoh bu sho‘r baxtimda.</i>

Javob :

1 -	2 -	3 -	4 -	5 -
-----	-----	-----	-----	-----

ADABIYOTLAR:

1. Sirojiddinov SH. O‘zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – T.: Yangi asr avlod, 2011.
2. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘lanma. – T.: Sano – standart, 2018.
3. Jumaxo‘ja N. Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi. XVI-XIX asr I yarmi. Toshkent: Noshir, 2019.
4. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
5. Alisher Navoiy. Lirika. (Tuzuvchi: prof N.Mallayev 3-nashr 1992).
6. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 1-4-jildlar. –T.: Fan, 1959-60.
7. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. 1-4-jildlar. –T.: Fan, 1963-

65.

8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami 20 tomlik. 1-6-jildlar, -T.: Fan, O‘qituvchi, 1967-89.
9. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994.
10. Nosirov O. O‘zbek adabiyotida g‘azal. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992.
11. Rustamova A. Navoiyning badiiy mahorati. –T., 1999.
12. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. –T., 1969.
13. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. –T.: Fan, 1961.

MAVZU: BOBUR HAYOTI VA IJODI

Mavzuni tavsiya etilgan o‘quv va badiiy adabiyotlardan o‘rganib, quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. Boburni shaxs sifatida tanish, o‘rganish sizga nima berdi?
2. Bobur she’riyati nimasi bilan boshqalarnikidan farq qiladi?
3. “Boburnoma” nasriy, tarixiy, memuar asar sifatida bugungi kun o‘quvchisiga qanday ma’lumotlarni bera oladi?
4. Bobur shaxsi va ijodiga murojaat etgan qaysi ijodkor va san’atkorlarini bilasiz? Ularning qaysi asarlari bilan tanishsiz?

“BOBURNOMA” ASARIGA DOIR NOODATIY TEST

1. “Boburnoma” da keltirigan ushbu baytlarning yaratilish tarixi bilan moslashtiring

1	Kim ko’rubtur, ey ko’ngil, ahli jahondin yaxshiliq? Kimki ondin yaxshi yo’q, ko’z tutma ondin yaxshiliq	A	Qobul atrofidagi Gulbahor degan joyda 34 xil lolani sanab o’tadi va ushbu g’azal dunyoga keladi.
2	Davron meni o’tkardi sari somondin Oyirdi meni bir yo’li xonumonimdin Gah boshima toj, gah baloyi ta’ma, Nelarki, boshima kelmadi davrondin.	B	Yunusxon hamda Ahmad tanbalning murosaga kelgani tufayli yaratiladi.
3	Jonimdan o’zga yori vafodor topmadim, Ko’nglimdan o’zga mahrami asror topmadim	D	Bobosi Amir Temur davlatining poytaxti bo’lgan Samarqandmi boy bergen paytda yaratilgan
4	Mening ko’nglimki gulning g’unchasidek tah-batah qondir	E	1501-1502-yillar voqealari bayonida

	Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondir.		bir hukmdorning Boburga iltifot ko`rsatmagani uchun yaratilgan
--	---	--	---

2. “Boburnoma” da keltirilgan Bobur oilasiga tegishli bo`lgan shajara tasnifini to`g’rilang

1	Umarshayx mirzo	A	mendin ikki yosh kichik edi, aning onasi mo'g'ulning tuman beklaridinn edi, Fotima Sulton otliq.
2	Qutlug'Nigorxonim	B	Nosirmirzo bila bir tuqqon yana bir qiz bor erdi, mendin ikki yosh ulug' erdi
3	Jahongir mirzo	D	Aksar qazoqliklarda va fatarotlarda mening bilan bir edilar. Qobulni olg'ondin besh – olti oy so'ngra tarix to'qquz yuz o'n birda tengri rahmatig'a bordilar.
4	Nosir mirzo	E	Temurbek unga Farg`ona viloyatini bergandir, U baland himmatliq va ulug` doiyalik podshoh erdi.
5	Xonzodabegim	F	onasi andijonlik edi, g'unchachi edi, Umid otliq. Mendin to'rt yosh kichik edi
6	Mehrbonubegim	G	mening bila bir tuqqon erdi, mendin besh yosh ulug' erdi
7	Shahrbonubegim	H	Yana bir qiz bor edi, onasi Og'a sulton otliq g'unchachi edi. Uni mening ulug`onam Esan

			Davlatbegim sahlab edi
8	Yodgor Sulton begim	I	bu dag'i Nosir mirzo bila bir tuqg'on erdi, mendin sekkiz yosh kichik edi.
9	Ruqiya Sultonbegim	J	Onasi Mahdum sultonbegim, u Jonibek Sultonga tushib erdi.

Javob	A	B	D	E

3. “Boburnoma”da keltirilgan joy nomlarini ta’riflariga moslashtiring

1. Tavr shahri voqe bo'lubdur, mevasi ko'p va ho'b bo'lur, qovuni bisyor yaxshi bo'lur. Movaraunnahr qovunicha yaxshi bo'lmas
2. Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun uzumi yaxshi bo'lur, eli turkdir, elining lafzi qalam birla rostdir, shahr va bozorida turkiy bilmas kishi yo'qdir.
3. Hech yog'iy qahr va g'alaba ila munga dast topmog'on uchun baldayi mahfuza derlar. Uni Iskandar bino qilgan, mo'g'ul va turk ulusi Semizkand derlar
4. Andijondan yeti yig'och yo'ldir, pur ne'mat anori va o'rige asri ko'p va xo'b bo'lur, Bir jins anor bo'lur : dona kalon derlar. Yana bir jins o'ruk bo'lurkim donasini olib ichiga mag'z solib quruturlar, eli sortdir, sohibi Xidoya bo'lib Rishton otliq kentdandur.
5. Shayx Muslihiddin va Xoja Kamol shu yerdandir. Bu yerning ovlog'i va qushlog'i bisyordir, qirg'ovul va tovushqoni ko'p va xo'b bo'lur.
6. Samarqandning Janubidadur, to'qqiz yig'och yo'ldir, Samarqand va bu joy orasiga bir toq tushibdir. Itmak doboni derlar, sangtaroshlik

qilur toshlarni bu tog`dan kelturlar. Temurbekning asli zodi shu yerdandur.

7. Bu joyni Nasaf hamda Nahshab ham derlar, uning nomi mo'g`ulcha otdir, Chingizzon tasallutidan so'ng bo'lg'ondur.

- A. Qarshi B.Andijon D.Buxoro E.Samarqand F.Xo`jand
G.Kesh H.Marg`ilon

	A	B	D	E

4.”Boburnoma” da keltirilgan hayvonlarga berilgan tavsiflarini to'g'ri toping

1	Bu ham yirik jonivor. Kattaligi uch sigircha bo'ladi... Bir shohi bor burnining ustida, uzunligi bir qarichdan ko'proq...»
2	Hindistonlik uni «haatiy» deydi... U yirik jussali va ziyrak jonivordir. Har nima desalar biladi va har nima buyursalar qiladi...
3	Hindustonda u tarqalgan. Bo'yoqdor va juda chiroyli jonivordir. Tanasi rangi va bezaklaricha emas. Gavdasi turnadek keladi, biroq bo'yi turnadek baland emas. Narining ham, urg'ochisining ham boshida yigirma-o'ttiztadan ikki-uch enlik balandlikdagi pari bor. Modasining bezagi va boyog'i yo'qdir. Narining boshida gulsafsar rangidagi halqa bor, bo'yni chiroyli ko'k rangda. Orqasining bo'ynidan pastroq qismi sariq, zangor, ko'k va siyohrang naqshlar bilan bezalgan
4	Uning 8 turi hikoya qilinadi Boburnomada, ularning uch turiga gapirishni o'rgatish mumkin, yana bir turi gapirishni biladi

A.Tovus B.To'tiquish D.Fil E.Karkidon

	A	B	S	D
Javob				

5.“Boburnoma” o‘zida bayon qilingan voqealar jarayonlari 3 qismga bo`linadi. Ushbu voqealar bayonotini bir-biriga juftlab ko`rsating.

a) Movaraunnahr b) Afg`oniston c)Hindiston

1	Bu qismda Boburning ...ni zabit etgani, so‘ng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg‘ol qilgani (1511), lekin shayboniyalar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton)dan yengilib (1512), ...ga qaytgani, keyin esa keyingi joyni zabit etishga hozirlik ko‘ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan
2	bu qismda esa Boburning Dehli sultonı Ibrohim Lo‘diyni mag‘lub etib, Shim. ...ni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma’lumotlardan iborat.
3	Boburning otasi — temuriylarning Farg‘ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461—94) xususida hamda Boburning Farg‘ona taxtiga o‘ltirishi (1494 yil iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o‘z ulusidan mahrum bo‘lishi (15-asr 90- yillari), Samarqand uchun Shayboniyxonqa qarshi olib borgan jangu jadallari (1497—1501)ning behuda ketishi, va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog‘lari orqali taxminan 250 navkar bilan keyigi yurishini amalga oshirishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan

Javobi	A	B	C
--------	---	---	---

6.Mashhur kishilarning Bobur haqidagi fikrlarini bir-biriga to'g'rilang.

1	Bobur mirzo so`z bilan jonli tasvir yaratish mahoratini mukammal egallagan adib edi.
2	U turli go`zal fazilatlar, maqtovga loyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatlari ichida shijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelar edi.
3	Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli.U o`z zamondoshlarining qiyofalari, urf –odatlari, intilishlari, qiliqlarini oynaday ravshan tasvirlaydi.
4	Bobur dilbar shaxs, uyg`onish davrining tipik hukmdori mard va tadbirkor odam bo`lgan, u san`atni adabiyotni sevadi, hayotdan huzur olishni yaxshi ko`rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo`lib, ko`p yaxshi fazilatlarga ega bo`lgan.
5	Chig`atoy sultonlarining eng sarasi va zo`r shijoatlisi edi.
6	Bobur mirzo bunyod etgan davlat garchi bobolariniki singari bepayon mintaqalarga yoyilmagan bo`lsada u o`z saltanatining sultoni, buyuk imperatori darajasiga ko`tarildi.Bu o`lkani 332 yil boshqargan buyuk sulolaga asos soldi.

- a) Tarixi Rashidiy b) Hasanxo`ja Nisoriy c) Javoharla`l Neru
d) Monstuart Elfinston e) Rumer Goden f) Pirimqul Qodirov

Javo b	
-----------	--

7. Berilgan hukmlarning to`g`ri yoki noto`g`ti ekanligini belgilang.

1. Asarning asl nomi Boburiya bo`lsa-da , uni “Voqeanoma”, ”Tuzuki Boburiy”, ”Voqeoti Boburiy” deb atadilar.
2. Bu asarning mavjud to`liq teksti 1857-yilda turkolog A. Beverij xonim tomonidan Qozonda tipografiya yo`li bilan o’zining to’rt betlik nashr prinsiplarini k’`rsatgan ruscha so’z boshisi bilan bosilgan.
3. “Boburnoma” dagi ma’lumotlar shu qadar ishonchliki, undan keyin yaratilgan mashhur “Haft iqlim” va Ravzatu-l-jannat” dagi butun-butun boblar (masalan, Qobul va Qandahorga bag’ishlangan) “Boburnoma”ga to’liq mos keladi, ya’ni undan olinganligi aniq.
4. Asarda Hindiston chuqur bilimdonlik bilan shu qadar aniq tasvirlanganki, “Hindiston haqida Boburdan oldin hech bir o’zbek olimi bunday mukammal asar yaratmagan edi.
5. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo‘lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur sultanatini qayta tiklashdan iborat edi.
6. “Mubayyin”da, muallif arab alifbosini tahrir etib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirgan.

Javob	Tog`ri	Xato
-------	--------	------

8.Bobur haqida asarlarni ularning yozgan yozuvchilar nomlari bilan juftlang

1	“Bobur Hindistonda” asari 1995-yili	a	Hind tarixchisi L.P. Sharmaning
2	“Boburiylar sultanati” asari	b	Amerikalik olim

	1988-yil		S.M.Berk
3	“Akbarshoh-boburiylarlarning eng buyugi” (Akbarshoh shaxsiyati va faoliyati misolida)	d	Ingliz tarixchisi Viliam Erskin
4	“Saodat sohili”(1980), “Boburning tushlari”(1992).	e	Barot Boyqobilov
5	“Kun va tun” she’riy qissa(1968)	f	Xayriddin Sulton
6	“Yulduzli tunlar” va “Avlodlar dovoni”	g	Pirimqul Qodirov

Javob

9. “Boburnoma”da keltirilgan mashhur tarixiy shaxslarga berilgan ta’riflarni toping

- a) Zohir va Botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo‘q edi, Sheri xud ma`lumdur, Mulloning janobi andin oliyroqdurkim, ta’rifqa ehtiyoj bo`lgay.
- b) So`zga chechan va xushxulq edi, muomalada shariatga rioya qilar edi, Turkiy tilde she`r yozgan “Devon” tuzgan, ”Husayniy” taxallusida ijod qilgan.
- d) Past bo`yli, tanbal kishi, to`nni bisyor tor kiyadi, belbog`ni ham juda tor bog`laydi, pokiza e`tiqodli, 5 vaqt namozni tark etmas, Aksar “Shoxnoma” o`qir edi. 3 o`g`il va 5 qizi bor edi.
- e) Turkiy til birla to she`r aytibdurlar, hech kim oncha ko`p va xo`paytqon emas uning tarbiyat va taqviyati bila Ustoz Qulmuhammad va shayxi Noyi muncha taraqqiy va shuhrat etmagay.

- f) U Hiriylidur, otasi Ustod Muhammad Sabz banno uchun mundoq taxallus qilubdir, G`azallarida rang va hol bordur, devon tartib qilubdur, masnaviylari ham bor, Bir masnaviysi mevalar bobida, mutaqorib bahrida, savt va naqsh o`tkargalichun Alisherbek taajub qilub tahsin o`qur.
- g) Filjumla mullolig`i bor edi, o`qug`on kitoblarining mafsalini elga ko`rsatib mullolig`ini isbot qilur erdi, masalni ko`p aytur erdi, masnaviysi yo`q, bir forsiy aruzi bor.
- h) U Jomdindur, aning taxallusi “Hotifiy”, xamsa muqobalasida masnaviyalar aytibtur, ”Haft paykar” muqobalasida aytqon masnaviysida “Haft manzar”, “Iskandarnoma” muqobalasida “Temurnoma” aytibdur, Bu masnaviyalaridin “Layli va Majnun” mashhurroqdir.
- i) Aning g`azallari hamvor va rangin, kam hadshadur. U devon ham tuzgon. Bir masnaviysi bor xafif bahrida “Shoh va Darvesh”ga mavsum, U darveshni oshiq qilubdur, shohni ma`shuq, ”xamsatayn”ning aksar abyoti yodida bor.
- j) U xushnavislardandur u Alisherbek uchun qalin kitoblar qildi har kunda yigirma bayt Alisherbek uchun bitar edi
- k) U musavvirlardandur, musavvirlik ishini bisyor nozik qildi, vale saqolsiz elning chehrasini yomon ochadur, soqolliq kishini yaxshi chehrali qushoyliq qiladur

1	Kamoliddin Behzod
2	Umarshayx mirzo
3	Hiloliy
4	Abdullo masnaviy
5	Abdurahmon Jomiy
6	Binoiy

7	Husain Bayqaro
8	Navoiy
9	Sayfiy Buxoriy
1 0	Sulton ali Mashhadiy

Java b	1-; 2-; 3-; 4-; 5-; 6-; 7-; 8-; 9-; 10-;
-----------	--

10.”Boburnoma”ning tarjimalariga va nashrlariga oid bo’lgan ma’lumotlarni juftlang

1	1857-yilda turkolog N. I. Ilminskiy	A	“Boburnoma” ning to’rtta forsiy tarjimasi ma’lum. Bu ishga birinchi bo’lib qo’l urgan kishi
2	1905-yilda ingliz orientalistlaridan A. Beverij xonim	B	“Boburnoma”ni rus tiliga to’la tarjima qilib, 3 marta (1958, 1982, 1993) nashr ettirdi (S. Azimjonovaning kirish so’zi va tahriri ostida).
3	1826 yilda J. Leyden va V. Erskin	D	AQShda (Kembrij shahri, Garvard unti, 1993) hamda ikki jild hajmda, mukammal so’zlik, ko’rsatkich va sharhizohlar bilan Yaponiyada (Kioto, 1995—96) ilmiy -tanqidiy matni nashr etildi.
4	V. Takston	E	Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to’liq nashrini (ingliz tilida)

5	Shayx Zaynuddin shayx Zayndir.	F	asarning asl matnda birinchi marta rus sharqshunos olimi tomonidan Rossiya tashqi ishlar vazirligining Sharq tillari bo'limining kutubxonasida saqlanayotgan va 1737-yilda Kerr tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma asosida 1857-yilda Qozonda to'liq nashr etilgan
6	M. Sale	g	Haydaroboddan topilgan bir qo'lyozmasining faksimilesini qo'lyozmaning ayni o'zini sinkografiya yo'li bilan nashr etdi.

Javob	1- ; 2- ; 3- ; 4- ; 5- ; 6- ;
-------	-------------------------------

ADABIYOTLAR:

1. Sirojiddinov SH. O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – T.: Yangi asr avlod, 2011.
2. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'lanma. – T.: Sano – standart, 2018.
3. Jumaxo'ja N. Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. XVI-XIX asr I yarmi. Toshkent: Noshir, 2019.
4. Bobur. Tanlangan asarlar. –T.: O'z FA, 1958.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Mahrami asror topmadim. –T.: 1993.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. 1-2-jildlar, -T.:1965-66.
7. Vohidov.R.Eshonqulov.X O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: 2006
8. Haqqul.I. Ijod iqlimi, -T.: 2009.

9. Gulbadanbegim. Humoyunnomalar. Jalon adabiyoti jurnali. 2015 yil.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. Sochining savdosi tushti. – T.: Sharq, 2007.
11. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Fan, 2019. – 504 b
12. Rumer Goden. Gulbadan. Muallif Ziyoruz.uz. 2014.
13. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. Kobul nashriga takmila (qo'shimcha). – T.: Sharq, 2004.
14. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. Mahrami asror topmadim. – T.: Yozuvchi, 1993.
15. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq, 2014.
16. Lamb H. Bobur – yo'lbars. – T.: O'zbekiston, 2018. – 296 b.
17. Vyrtle F. Andijon shahzodasi. – T.: O'qituvchi, 2012. – 160 b.

MAVZU: QO'QON ADABIY MUHITI VAKILLARI IJODI

1- Topshiriq.Mavzuni tadsiya etilgan o'quv va badiiy adabiyotlardan o'r ganib, savollarga yozma javob bering.

- 1.XVIII-XIX asrlarda xonliklar hududida ijtimoiy-siyosiy hayotda qanday voqealar yuz berdi?
2. Qo'qon xonligida yashab ijod etgan qaysi ijodkorlarni bilasiz?
3. Rahimbobo -Mashrab hayoti va faoliyati haqida nimalar bilasiz?
4. Mashrab ijodiy merosi nimalardan iborat.
5. Mohlaroyim Nodira va Uvaysiy hayoti va faoliyati haqida nimalar bilasiz?

6.XVIII-XIX asrlarda Qo‘qon xonligida yaratilgan qaysi adabiy asar namunalarini o‘qib chiqdingiz? Ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida nima deya olasiz?

7. Bu davr madaniyati, adabiyoti bugungi san’at, kino va teatrda qanchalik o‘z aksini topgan?

2-Topshiriq.Quyidagi matnni o‘qib chiqib, unda siz uchun yangi bo‘lgan ma’lumotlarni so‘zlab bering

MASHRAB TARJIMAI HOLIGA DOIR

Mutafakkir shoir Boborahim Mashrab 1653 yil 22 mayda Namangan shahar Maddohlik mahallasida tug‘ilgan. Manbaalarda qayd etilishicha, 1665 yil 12 yasharligida Namanganda dovrug‘ qozongan ulamo mulla Bozor oxund tahliga kirishgan. Ilm-odob qoidalarini o‘rgatgach ustoz Bozor Oxund uning ilmini mukammallashuvini xohlab Qashqarga o‘z piri Ofoqxoja xonadoniga kuzatgan. Bu paytda shoir 20-21 yoshlarda bo‘lgan.

*Namangandek tabarruk yurt menga tor bo ‘ldi,
Mullolar qutqusidan aziz boshim xor o ‘ldi,
Onam, singlim mushtipar parcha nonga zor o ‘ldi,
Bo ‘ynim egib, tiz cho ‘kmoq, naylay menga or o ‘ldi,
Ko ‘ring emdi yoronlar, ko ‘ksim lolazor o ‘ldi.*

Shoir ba’zi badxulq, rishvaxo‘r mullalar va shahar hokimi, amaldorlari qutqusidan bezib tug‘ilgan yurti Namanganni tashlab ketishga majbur bo‘lgan. Boborahim Mashrab Ofoqxojaning dovrug‘i ketgan ulug‘ pirligini, quvvai hofizasi va nafasi o‘tkir shayxul a’zamligini, uning yetishgan avliyoligini, islomiy va dunyoviy ilmlarda peshqadamligini, tasavvuf ta’limotining pirlaridan ekanligini e’tirof etib, uning dargohida ilm olish va ulug‘ avliyo ruxsorini ko‘rish umidida unga murid tushishni “pirostonasidagi jamiki riyozatlarni

boshqa so‘fiylar qatori ixtiyoriy tarzda o‘zi hohlagan”, yor-Yaratgan vaslini pirdan ilm o‘rgangachgina ko‘rishni orzu etgan.

Fitrat bergen ma’lumot bo‘yicha Mashrab Qashqardagi Ofoqxojaga murid tushib, “Mashrab” taxallusini ham oladi. Mashrab piri Ofoqxoja iltifotidan baramand bo‘lib, shu xonadonda qalandarlik, darvishlik libosida dunyoga yuz burgan va Ofoqxoja xonadonida avliyolikka yetishib, tariqat ilmini mukammal o‘rgangani holda ko‘p mamlakatlarga borgan. Yorkent, Xo‘tan, G‘ulja, Toshkent, o‘z ona yurti Namanganga kelgan. So‘ngra, Ofoqxoja huzuriga qaytib, undan duo olib 18 yil davomida bir qancha mamlakatlarni kezgan darvish shoir Mashrab Yaman, Hindiston, Dakan, Isfaxon, Hirot, Mashhad, Balx, Makka, Madina, Jidda, Xalab, Sheroz, Shom, Rum, Bag‘dod, Shibirg‘on, Andxuy, Mozori Sharif, Buxoro, Nasaf, Turkiston, Shohimardon kabi joylarda bo‘lgan. Qabodiyon, Xo‘jand, Badaxshon, shuningdek, Yaqin Sharqning qator o‘lkalariga borib, xalqni she’riyatidan bahramand etgan.

Matnda keltirilgan rishvaxo‘r, avliyo, badxulq, pir, tasavvuf, murid, murshid, darvishlik kabi so‘zlarni qanday tushunasiz?

3-Topshiriq. Quyidagi matnni o‘qib chiqib, unda siz uchun yangi bo‘lgan ma’lumotlarni so‘zlab bering

MASHRAB IJTIMOIY ADOLAT HAQIDA

Mashrabning ijtimoiyadolat va tenglik haqidagi qarashlari tahlilida, Mashrab avvalo adolatsizlik va mutaassiblikka qarshi izchil kurashchi, qo‘rqmas muboriz sifatida namoyon bo‘ladi. “Qissai Mashrab” tadqiqotchisi, professor V. L. Vyatkin mutafakkir shoirning O‘rtta Osiyo xalqlari orasida keng shuhrat qozonishining bosh sabablaridan biri «Mashrabning mavjud qalbakichilik, haqsizlikka qarshi bo‘lgan kuchning timsoli sifat xizmat etishidir», - deb ko‘rsatganida juda haqli edi. «...mehnatlash omma tarixiy

Mashrabning ijodi va faoliyatini talqin qilganida ham, to‘qima rivoyatlarda ham o‘z orzu-istiklarini, intilishini ifodalaydi, mavjud zodagon muhitga bo‘lgan munosabatini bildiradi.

V. Vyatkin fikricha, xalq ommasi nimalarga qarshi norozilik bildirdi va nimalarni mayna-masxara ostiga oldi, shularni ko‘rsatadi. Mashrab nafaqat nola qiluvchi, balki isyonkor shoir sifatida zulm va razolat ildizini,adolatsizlik va qabohat tazyiqini qirqish uchun yomonlarga va yomonlikka qarshi she’rlari bilan qalqon bo‘ldi, amaldorlarning kirdikorlariga qarshi o‘z nafratini bildirdi.

Mutafakkir Mashrab ijtimoiy-falsafiy qarashlaridan bugungi avlodlarga meros qolgan saboq shuki, u butun olam va odam yaratuvchisiga e’tiqod qo‘yish, pok niyat bilan yashash, tabiat tilsimotlaridan boxabar bo‘lish va uni ardoqlashdir. Inson ulug‘ niyat va pok e’tiqod bilan hayot kechirsagina, bir-biriga rahm-shafqat, adolat qilsa, uni ulug‘ manzillar kutadi, - deya ta’kidlaydi. Mashrab ulug‘ ustozи she’riyatidan tashqi borliqqa, davrning dolzarb masalalariga faol munosabatda bo‘lishni ham o‘rgandi. Inson erkining, haq-huquqlarining zamona zo‘ravonlari tomonidan beshafqat toptalishiga qarshi norozilik tuyg‘ularini ifodalashda Navoiyning boy va rang-barang asarlariga suyandi.

Shoh Mashrabning ilk ustozи mulla Bozor oxund der ekanlar: “Mashrabga ozor bermanglar, Farg‘onai zaminning dardini ul ko‘tarur!” Mashrab zohidlarning din va tasavvufga zid xatti-harakatlari hamda boylik ketidan quvishini, firibgarlik va ta’magirlilik bilan shug‘ullanishining guvohi bo‘lgan, taqvodorlik, namoz o‘rniga vahdat mayini ixtiyor etgan. U ikkiyuzlamachilik, munofiqlik bilan shug‘ullanuvchi fosiq va xudbin zohidlarning yaramas odatlarini ko‘rib, islomni oyoq osti qilmaslikka chaqirgan.

Matndagi fosiq, zohid, munofiqlik, zodagon muhit, mutaassiblik, razolat, isyonkorlik so‘zlarini ma’nosini qanday tushundingiz?

Testlar

1. Qo`qon adabiy vakillari va asarlarini bir-biriga moslashtiring.

1	Boborahim Mashrab	a	“Karbalonoma”, “Voqeoti Muhammad Alixon”
2	Maxmur	b	“Ilm xosiyati”, “Nuh manzar”, “Akt majlisi”
3	Muqumiy	d	“Majmuai shoiron”
4	Amiriy	e	“Suv janjali”, “Qahatchilik”
5	Furqat	f	“Sayohotnama”
6	Zavqiy	g	“Qissasi Mashrab”, “Shoh Mashrab”
7	Gulkaniy	h	“Zarbulmasal”
8	Uvaysiy	i	“Atoyi poraxo`rga hajv yozish ulug` bir san`atdir”

javob	1-	2-	3-	4-	5-	6-	7-	8-
-------	----	----	----	----	----	----	----	----

2. Quyida berilgan g`azallarni muallifi bilan joylashtiring.

1	Nodira	a	Fasli navbahor o`ldi ketibon zimistonlar, Do`sstar, g`animatduri, sayr eting gulistonlar.
2	Furqat	b	Bugun, ey do`sstar, farzandi jononimni sog`indim, Gado bo`lsam, ne ayb, ul shohi davronimni sog`indim.
3	Uvaysiy	d	Muhabbatsiz kishi odam emasduri, Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et!

javob	1-	2-	3-
-------	----	----	----

3. Quyidagi taxalluslar va adiblarning asl ismlari bilan moslashtiring.

1	Gulxaniy	a	Mohlaroyim
2	Foniy	b	Muhammad Sharif
3	Komila, Maknuna	d	Jahonotin
4	Uvaysiy	e	Alisher Navoiy
5	Amiriy	f	Umarxon

Javob	1-	2-	3-	4-	5-
-------	----	----	----	----	----

4. Uvaysiyning chistonlari javobini toping:

1	Yong'oq	a	Ikki maxbubni ko'rdim, bir-birini ko'rмаган. Do'stlar ular орасига hatto qil ham sig'magan.
2	Anor	b	Ul na sabztonlik yoz yog'ochning boshida. Qish yalong'och aylagay barcha xaloyiq qoshida.
3	Ko'z	d	Ul na gumbazdir eshigi tuynugidin yo'q nishon. Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon.

javob	1-	2-	3-
-------	----	----	----

5.Qo'qon adabiy muhiti vakillarini ular yashagan yillar bilan to'g'ri juftlang

1. Jahon Otin Uvaysiy	A) 1640 - 1711 yillar
2. Boborahim Mashrab	B) 1779 – 1850 yillar
3. Nodirabegim	C) 1859 – 1909 yillar
4. Furqat	D) 1850 – 1903 yillar
5. Muqimiyy	E) 1792 – 1842 yillar

Javob	1-	2-	3-	4-	5-
-------	----	----	----	----	----

6. Mashrab haqida ma'lumotlar uchraydigan asarlarni muallifi bilan juftlang

1. “Tazkirai qalandaron”	A) Majzub Namangoniy
2. “Muntaxab ut - tavorix”	B) Ishoq Bog’istoniy
3. “Ansobus - salotin”	C) Maleho Samarqandiy
4. “Tazkiran - avliyo”	D) Hakimxon To’ra
5. “Muzakkir ul-asxob”	E) Mirzo Olim

Javob	1-	2-	3-	4-	5-
-------	----	----	----	----	----

7. Boborahim Mashrab haqidagi ma'lumotlar berilgan ijod namunalari qatorlarini to'g'ri juftlang:

1. “Mashrab” maqolasi	A) Mirkarim Osim
2. “Mashrab” asari	B) Shuhrat
3. “Singan setor” qissa	C) Abdurauf Fitrat

4. “Mashrab” lirik dostoni	D)Oybek
5. “Mashrab” romani (tugallanmagan)	E) Muhammad Ali

Javob	1-	2-	3-	4-	5-
-------	----	----	----	----	----

8. Qatorlarni to’g’ri juftlang:

1. Nodirabegin	A)“To otang rozi emas...”
2. Furqat	B)“Ul na gumbazdur: eshigi, tuynugidin yo’q nishon...”
3. Boborahim Mashrab	C)“Muhabbatsiz kishi odam emasdur...”
4. Muqimiy	D)“Surmadin ko’zlar qaro...”
5. Jahon Otin Uvaysiy	E)“Ey yaxshilar, kelaylik, bir joyga yig’ilaylik...”

Javob	1-	2-	3-	4-	5-
-------	----	----	----	----	----

9. Nodirabegin haqida ma’lumotlar berilgan asarlarni mualliflari bilan juftlang

1. “Muntaxabut - tavorix”	A)Avazmuhammad Attor
2. “Voqeoti Muhammadalixon”	B)Ishoqxon To’ra
3. “Haft gulshan”	C)Hakimxon To’ra
4. “Tarixi Farg’ona”	D)Uvaysiy
5. “Tuhvat ut - tavorix’	E) Nodir Uzlat

Javob	1-	2-	3-	4-	5-
-------	----	----	----	----	----

10. Jahon Otin Uvaysiy ijod na'munalari qatorini to'g'ri juftlang

1. G'azal	A)3 ta
2. Muxammas	B) 1 ta
3. Musaddas	C) 55 ta
4. Chiston, murabba	D)29ta
5. Doston	E) 269 ta

Javob	1-	2-	3-	4-	5-
-------	----	----	----	----	----

ADABIYOTLAR:

1. Qosimov.B. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri ozbek adabiyoti. Darslik. -T.: Ma'naviyat, 2004.93-143 betlar.
2. Ozbek adabiyoti tarixi. Akademnashr, 5-jild, 1980.
3. Mashrab. Mehribonim qaydasan. Devon. -T.: 1990 .
4. Orzibekov. R Ozbek adabiyoti tarixi. (XVII-XIX asrlar). -T.: 2006. 271 bet
5. Gulxaniy. Zarbulmasal va g'azallar.- T.: 1990 .
6. Nodira. Devon.- T.: «Sharq» 2000 y.
7. Karim.M. Mohlaroyim. Roman. -T.: 1990 .
8. Uvaysiy sheriyatidan. -T.: 1991 y.
9. Jumaxo'ja N. Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. XVI-XIX asr I yarmi. Toshkent: Noshir, 2019.
10. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti.- T.:1961.

MAVZU: XONLIKLER DAVRI ADABIYOTI. XORAZM ADABIY MUHITI VAKILLARI IJODI

1-Topshiriq.Mavzuni tasiya etilgan o‘quv va badiiy adabiyotlardan o‘rganib, savollarga yozma javob bering.

1. XVIII-XIX asrlarda xonliklar hududida ijtimoiy-siyosiy hayotda qanday voqealar yuz berdi?
2. Xorazm adabiy muhitida shu davrda ijod qilgan qaysi ijodkorlarni bilasiz?
3. Munis asarlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Ogahiy ijodiy merosi haqida qanday tasavvurga egasiz?
5. XVIII-XIX asrlarda Xorazm xonligida yaratilgan qaysi adabiy asar namunalarini o‘qib chiqdingiz? Ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida nima deya olasiz?
6. Bu davr madaniyati, adabiyoti bugungi san’at, kino va teatrda qanchalik o‘z aksini topgan?

ADABIYOTLAR:

1. Qosimov.B. va boshqalar. Milliy uyg’onish davri ozbek adabiyoti. Darslik. -T.: Ma’naviyat, 2004.93-143 betlar.
2. Ozbek adabiyoti tarixi. Akademnashr, 5-jild, 1980.
3. Jumaxo‘ja N. Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi. XVI-XIX asr I yarmi. Toshkent: Noshir, 2019.
4. Orzibekov.R Ozbek adabiyoti tarixi. (XYII-XIX asrlar). -T.: 2006. 271 bet
5. Normatov U. Yangi o‘zbek adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T. : Universitet. 2007.
6. Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. -T.: 1972.
7. Munis. Saylanma. -T.: Fan, 1980.
8. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma’naviyat. T.: Ma’naviyat, 2015
9. Jabborov N. Ma’rifat nadir. –T.: Ma’naviyat, 2010

10. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. Adabiy-ilmiy maqolalar to‘plami. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016.

MAVZU: MILLIY UYG‘ONISH DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI ILK BOSQICHI. FURQAT VA MUQIMIY HAYOTI VA IJODI

1-Topshiriq. Mavzuni tasiya etilgan o‘quv va badiiy adabiyotlardan o‘rganib, savollarga yozma javob bering.

1. Milliy Uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti atamasini izohlang.
2. Milliy Uyg‘onish davri adabiyoti qanday bosqichlarga bo‘lib o‘rganiladi?
3. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda qanday tarixiy voqealar aks etdi va ular adabiyotda qanchalik o‘z aksini topdi?
4. Bu davrda yashab ijod etgan qaysi ijodkorlarin bilasiz? Ularning qaysi asarlarini o‘qigansiz?
5. Bu davrda yaratilgan asarlarda qaysi mavzu va muammolar ko‘proq aks ettirilgan. Misollar bilan tushuntiring.
6. Muqimiy va Furqat bir davrda ijod qilgan shoirlar sifatida ularning ijodida qanday farqli va umumiy jihatlar mavjud?
7. Bu davrni, adabiyotini o‘rganish bugungi kun yoshlariga nimani beradi?

“Sayding qo’yaber, sayyod” keysi

Keys bayoni: Furqatning «Sayding qo'yaber, sayyod, sayyora ekan mendek» misrasi bilan boshlanuvchi musaddasi uning ijodida muhim o'rinni egallaydi. Sayd (ov), sayyod (ovchi), dom (tuzoq) timsollari Sharq adabiyotida qadimdan mavjud. XVIII asrda turkman shoiri Andalib ushbu timsollardan unumli foydalanib, ovchi tuzog'iga tushgan ohuga hamdardlik tuyg'usi bilan to'lib-toshgan maxsus muxammas ham yozgan edi. Furqatniki musaddas bo'lib, bu ham shu an'ananing davomidir. Lekin shoir yashagan zamon, Turkistonday

yurtning qo'ldan ketib, el va yurtning istilo asrining sayyodi qo'liga tushishi unga, tabiiyki, yangi ma'no, ya'ni mazmun beradi. [Qolaversa](#), furqatshunoslar ushbu musaddasning maydonga kelishida she'rda nomi zikr etiladigan Sa'dulla hofizning yomonlar tomonidan fojiali o'ldirilishini ham bir sabab qilib ko'rsatadilar.

Keys savoli: Furqatning ushbu g'azalini siz qanday tushundingiz? Sayd, sayyod so'zlari sizga nimalarni anglatdi? G'azalda erk va ozodlik mavzusi aks enganmi?

1-Topshiriq. Furqat hayoti va ijodini o'rganib quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. Furqatning o'zbek adabiyotidagi o'rnini qaysi asarlari bilan belgilaysiz? Qaysi asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan keladi?
2. Furqat hayotining murakkabligini nimalarda ko'rasiz? Ijodining murakkabligini-chi? Nega u Vataniga qayta olmadi? Nega Rusiya ilm-fanini ko'rdi-yu, istibdodini payqamadi?
3. Furqatning Navoiyga ixlos va muhabbat haqida nimalarni bilasiz? Hayot va ijodidan misollar keltiring.
4. Furqatning Toshkcntga kelishi uning taqdirida qanday rol o'ynadi? Shoirning rus va Ovrupo ilm-fani haqidagi fikr-qarashlari to'g'risida nimalar deya olasiz? Furqatning g'urbat mavzuidagi asarlarini o'qing, shoir ijodida vatan mavzuining bu qadar keng va chuqr ishlanishi sabablarini tushuntirib bering.

ADABIYOTLAR:

1. Qosimov.B. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri ozbek adabiyoti. Darslik. -T.: Ma'naviyat, 2004.93-143 betlar.
2. Muqimiyy. Asarlar toplami. 2 tomlik.- T.: 1960.
3. Karimov.G'. Muqimiyy hayoti va ijodi. -T.; 1960.
4. Ozbek adabiyoti tarixi. Akademnashr, 4-jild, 1980.
5. Rasulov.X. Zokirjon Furqat ijodi. FFN.Dissert. 1953.
6. Yusupov.SH. Furqat yollarida. Monografiya. -T.:1984.

7. Jabborov.N. Furqatning Xitoy tarixiga oid asari xususida. “Xitoyda furqatshunoslik” maqolalari. 2014.
8. Abdulla.S. “Mavlono Muqimiy” romani
9. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma’naviyat. T.: Ma’naviyat, 2015
10. Jabborov N. Ma’rifat nadir. –T.: Ma’naviyat, 2010
11. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. Adabiy-ilmiy maqolalar to‘plami. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016.

MAVZU: MILLIY UYG’ONISH DAVRI JADID ADABIYOTI

1-Topshiriq.Mavzuni tadsiya etilgan o‘quv va badiiy adabiyotlardan o‘rganib, savollarga yozma javob bering.

1. Jadidchilik harakati qanday harakat?
2. Ismoilbek Gasprinskiy kim? Uning tarjimai holi, adabiy merosi haqida ma’lumotga egamisiz?
3. Milliy Uyg‘onish davri jadid adabiyoti namunalaridan qaysilarini o‘qigansiz? Ularda aks etgan dolzarb muammo va mavzular nimalardan iborat bo‘lgan?
4. Tavallo (To‘lagan Xo‘jamyorov) she’riyati bilan tanishib chiqing. Shoir ijodida aks etgan mavzu va muammolar bugungi kunda qanchalik dolzarb deb o‘ylaysiz?
5. Behbudiyning “Padarkush” dramasi, Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlarida ilgari surilgan g‘oyalarni anglash XXI asr o‘zbek yoshlariga nima beradi?
6. Jadid adabiyoti namunalaridan qaysilari bugungi kunda birinchi navbatda sahnalashtirilishi yoki ekranlashtirilishi zarur deb hisoblaysiz va nima uchun?

“TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARI YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR

1. Ibn Sino hakim: «Tan riyozatidan ko‘proq ruh riyozati lozimdur. Mard kishi o‘zini riyozat va adab ila ko‘rsatsun, inson ila hayvon orasidagi farq yolg‘uz maishatda emas, yaxshi axloq kasb qilmoqdadur», – demish. Riyozat nima? Unga ta’rif bering.
2. “Botir va yurakli bo‘lmakka.....deyiladi. ning ziddi qo‘rqaqlidir”.Jumlanı yakunlang.
3. Qanoat deb janobi Haq tarafidan ihson bo‘lgan ahvolga yetishdig‘imiz ne’mat va molga shukr, boshimizga kelgan faqr, musibat, falokatlarga chidab, sabr qilmoqni aytilur. Qanoat hasad, tama, hirs, xorlik kabi illatlarning davosi, nafsimizning g‘inosidur.Qanoat va qanoatsizlik nimalarda ko‘rinadi? Misollar bilan tushuntiring.
4. Din ulamolari diniy kitoblarda Alloh taologa ibodat qilishning yo‘l va qoidalarini bayon qilmishlar. Ibodat ikki turli bo‘ladur: Biri tan ibodati, ikkinchisi ruh ibodati. Tan va ruh ibodatini qanday tushunasiz?
5. Fatonat deganda nimani tushunasiz? Uning ilm bilan qanday aloqasi bor?
6. Qaysi bir fazilat shahvatni iffatga, g‘azabni shijoatga, shiddatni hilnga, kattalikni tavozu’ga, yomonlikni yaxshilikg‘a aylandurmakg‘a quvvati yetar?
7. Insonlarning tab’idan xusumat, adovat, g‘azab, hiddat kabi yomon xulqlarni yo‘q qiladurgan har kim uchun maqbul bir sifat qaysidir?
8. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar. Janobi Haq yer-u osmonlarni, oy va yulduzlarni, inson va hayvonlarni, qurt va qushlarni shunday bir nizom ila tarbiyat berib yaratmishdurki, aql bilmakdan, qalam yozmakdan, til so‘zlamakdan ojizdur. Dunyoga kelgan payg‘ambarlarning har birlari din va shariatlarini tarbiyat va nizom ila yurutmishlar.Intizom nimalarda ko‘rinadi? Shu haqda fikr bildiring. Intizomsizlik deganda nimani tushunasiz?

9. Miqyosi nafs deganda nimani tushunasiz? Buyuk Iskandar: «Dunyoda eng haqiqiy, to‘g‘ri o‘lchov nafs o‘lchovidurki, bu mezonda zarra nuqson yo‘qdur», – demish. Ibn Sino hakim: «Insonning fazl-u kamolining o‘lchovi nafsning o‘lchovi ila o‘lchanur», – demish. Sizning bu haqdagi fikringiz qanday?
10. Vijdon insonning aql va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu tarozu ila o‘z kamchiliklarini o‘lchab bilmak ila barobar boshqalarning ham af’ol va harakotini sezur,- deydi Avloniy. Vijdon deganda siz nimani tushunasiz? Bugungi kunda vijdonlilik va vijdonsizlikning qanday ko‘rinishlarini misol sifatida ko‘rsata olasiz?
11. Kishining qilgan yaxshiliginu unutmaslik qanday fazilat?
12. G‘azabnnig boshi junun, oxiri nadomatdir” degan Suqrot. G‘azabning salbiy oqibatlarga olib kelishini misollar bilan tushuntiring.
13. “Jahli basit” dan “jahli murakkabning farqi nimada?”
14. Ilm yaxshimi, jaholatmi, tushunmaymiz hanuz,
Aqlimiz yo‘qmi bizi, Majnunmi yo tentakmiz?
Ichkuluk “ummul xabois” dedilar payg‘ambarim,
Kecha kunduz xo‘b icharmiz, johili nopokmiz.
Basdur, ey Hijron, jaholatdan gapurmak shunchalar,
To‘g‘ri so‘z tuvg‘onga yoqmaydur, degan o‘rnokmiz. Shu misralarni tushuntirib bering.
15. Anoniyat nima? Uning xudbinlik, mutakkabbirlik, manmanlik bilan qanday umumiyligi bor?
16. Xasosat va saxovatning farqini tushuntiring.
17. Aflatun hakim nimani dildagi zangga o‘xshatadi? Zang temirni yegani kabi u qalbni azobga soladi..... nafsoniyatdan paydo bo‘ladi
18. Avloniy chaqimchilikni qanday ataydi? Nammom va g‘iybatchilarni buzoqboshiga o‘xshatadi.

19. Qarimtalik dunyodur” qismida Avloniy nima haqida so‘z yuritadi?
20. G‘ibta nima? U hasadga nega qarshi qo‘yiladi? Hosid kim?
21. “Al kazzobu yo ummati” Yolg‘onchi mening ummatimdan emas” degan Payg‘ambarimiz SAV. Kazzob, yolg‘onchi so‘zlari qanchalik bir biriga bog‘liq?
22. Nifoq va munofiqlik o‘rtasida qanday umumiylilik bor?

2-TOPSHIRIQ. “Teatro‘ o‘yunbozliq emas! Masxarabozliq ham emas. Teatr bamisoli oynavand bir uykim, kirgan har bir kimsa o‘z husnu qabihini ko‘ra olur... Yuziga un surtib masxaraboz shakliga kirgan zotlar tabibi hoziqdirlar...” so‘zlari kimga tegishli? Bu nutq qayerda va qanday sharoitda dunyo yuzini ko‘rgan?

3-TOPSHIRIQ. Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ahloq va tarbiyaga qanday ta’rif beradi? Asarda muallif aql va ilmni, ma’naviy axloqiy olamni qanday ulug‘laydi? Adibning ma’rifatparvarligi nimalarda ko‘rinadi?

4-TOPSHIRIQ. Avloniying “Turkiy guliston yoxud ahloq” asarida muallif insonga xos yaxshi va yomon xulqlarni qanday tasniflaydi? Ushbu xulqlarning har biriga siz ham tavsif bering.

5-TOPSHIRIQ. Avloniy asarida keltirgan nazari ibrat, viqor, munislik, fatonat, riyozat, hilm, miqyosi nafs, fatonat, nazofat, hifzi lison, xavf va rajo kabi yaxshi xulqlarni tavsiflang va tushuntirib bering.

6-TOPSHIRIQ. “Turkiy guliston yoki axloq” asarida keltirilgan 18 ta qusurga ta’rif bering va ularni misollar bilan tushuntiring.

7-TOPSHIRIQ. Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq asarida keltirilgan yaxshi va yomon xulqlarning qaysi birining bugungi kunda yo‘qolishi yoki kuchayishi sizni o‘ylantiradi? Umuman inson qanday ijobjiy xislatlarga ega bo‘lishi shart deb hisoblaysiz? Shular haqida fikr yuriting.

8 -TOPSHIRIQ. Avloniy yomon xulqlar sifatida keltirgan xasosat, rahovat, anoniyat, kizb, nifoq, ta’ma kabi tushunchalarga munosabatingizni bildiring. Ularni misollar bilan izohlang.

9-TOPSHIRIQ. “Jaholatning 2 turi bor: biri jahli basit, ikkinchisi jahli murakkab. Birinchisi u qadar dahshatli emas. Ular bir narsani bilmasalar, bilmasliklarini e’tirof qiladilar. Uning davosi qiyin emas. Ikkinchisi yomon. Ular bir narsani bilmaydilar va bunga iqror ham bo‘lmaydilar. Ularni xalq “o‘zi bilarmon” deb ataydi. Hamoqat shuning bir ko‘rinishi. U aql va ma’rifat kamligidan hosil bo‘ladi. U jaholatdan yomonroq. Chunki johilda birgina nodonlik bor. Ahmoqda esa necha aqllini aldaydigan yolg‘on yashiq so‘zlar bor. Bu davosi mushkul illatdir!” deb yozadi Avloniy. Hozirgi kunda bu fikr qanchalik dolzarb, shu haqda fikringizni bildiring.

“Dunyon sabab izzati boylikmi?” keysi

Keys bayoni: Mahmudxo’ja Behbudiyning “Padarkush yohud o’qimagan bolaning holi” asari 1911-yilda yozilgan. Turkiston maishatidan olingan ibratnama bo’lib, birinchi milliy fojiadir. Jadid dramasining shakllanishi davridagi ilk milliy pesa deb ham e’tirof etiladi. Asarda Boy uyiga odamlar mehmon bo’lib kelishadi. Domla ham mehmon bo’ladi. Shunda Boyning yoniga o’g’li kelib tomosha uchun pul so’rab chiqib ketadi. Domla Boydan o’g’lingiz mакtabda o’qidimi deb so’raydi. Boy o’g’lini o’qitmoqni oylagani yo’qligini aytadi. Shunda: “Domla – Ajoyib, sababi nadurki, o’qutmaysiz? Vaholanki, o’qumoq qarz va ham ilm sabab izzat dunyo va sharofat

oxiratdur. Boy – Mani xayolimg'a dunyoning sabab izzati boylik. Oxiratg'a bo'lsa, xudoni qilgan taqdiri bo'lur" deydi.

Keys savoli: Boyning so'zlari qanchalik to'gri? Haqiqatdan han dunyoning izzati boylikmi?

Keys: Mahmudxo'ja Behbudiyning “Padarkush yohud o'qimagan bolaning holi” asari.

1. Asar qanday voqeа tasviri bilan boshlanadi?
2. Boy nega o'glini mакtabda o'qitmaydi?
3. Mulla va boyning fikrlashidagi farq nimada?
4. Xayrulla yetti so'mlik oyligi uchun nima vazifalarni bajaradi?
5. Domla boyga nimani taklif qiladi?
6. Domla nima uchun boy mehmonxonasidan arazlab chiqib ketadi?
7. Komil mulla bo'lmoq uchun qanday amallarni bajarish lozim?
8. Pivaxonadagi ulfatlarga pul nima uchun kerak bo'lib qoldi?
9. Pivaxonada o'tigan ulfarlar orasida Davlat qanday reja tuzadi?
10. Boy qanday o'lim topadi?
11. Boyning o'limiga kim sababchi?
12. Fojia qanday yakun topadi?
13. Behbudiy asarda qanday g'oyani ilgari surgan?
14. Nima deb oylaysiz boylarga ilm nima uchun kerak?
15. Domla bergen maslahatiga siz ham qo'shilasizmi?
16. Ilmli bo'lmoq bilan ilmsizning farqi nimada?
17. Ilm va tarbiyasiz bolalarning kelajagi qanday bo'lishi mumkin?
18. 1911-yilda yozilgan “Padarkush” asari hozirgi kunga qanchalik to'g'ri keladi?

Mini keys: “Advokatlik osonmi?” dramasi.

1. Adib asarda nimani ko'rsatadi?
2. Davronbek kim va uning maqsadi nima?

3. 60 so`mini 100 so`m qilib undirmoqchi bo`lgan odam kim? Va Davronbekning u haqidagi fikri?
4. Oilasining qistovi bilan majburan erga tegib, eridan faqat zulm ko`rgan ayollarning hayotini o`zgartirish maqsadida advokat qanday fikr bildiradi?
5. Sizningcha “Ena-o`tirishingga qarab chena” degan gapning ma`nosi qanday?
6. Egamberdi aravakashning muammosi nima edi? Va uni hal qilishga advokat yechim topadimi?
7. Voqealar qanday yakun topadi?

ADABIYOTLAR:

1. Qosimov B., Yusupov SH., Dolimov U. va b. Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti. - T.: Ma`naviyat, 2004. 251-310 bet
2. Mirzayev S. XX asr o`zbek adabiyoti. – T., Yangi asr avlod. 2005.
3. Normatov U. Yangi o`zbek adabiyoti. O`quv qo`llanma. – T. : Universitet. 2007.
4. Karimov N va b. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. – T.: O`qituvchi, 1999.
5. Qosimov B. Milliy uyg`onish: ma`rifat, jasorat, fidoyilik. -T.: Ma`naviyat, 2002.
6. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. –T.: Universitet, 2006.
7. Qosimov. B. Jadidchilik. Milliy uyg`onish. /to`plam/ «Universitet» 1993.
8. Qosimov.B.Izlay-izlay topganim T., G G. nashr., 1983
9. Rizayev Sh. Jadid dramasi. T.,1998
10. Qosimov.B. Ismoilbek Gasprali G. G. nashriyoti., 1992
11. Qosimov B. A.Avloniy (Adabiy pedagogic portret) -T.: 1979.
12. Dolimov U. Milliy uyg`onish pedagogikasi. – T.: Noshir, 2012

MAVZU: FITRAT VA CHO`LPON HAYOTI VA IJODI

1-TOPSHIRIQ Quyida berilgan mavzularning biriga 5 -7 minutlik nutq tayyorlang

1. Fitrat hayoti va ijodi.
2. Fitrat dramalari.
3. CHo‘lpon nasri.
4. CHo‘lpon she’riyati.

2- TOPSHIRIQ. Quyidagi she’rlarni yod oling va ifodali o‘qib bering.

1. CHo‘lpon she’rlaridan biri.
2. Fitrat “Mirrix yulduziga” she’ri.

3-TOPSHIRIQ. CHo‘lponning “Kecha va kunduz” romani qahramonlari Akbarali mingboshi va Zebi obrazlarini qiyoslang. Ularni fojiali yakunga olib kelgan sabablarni izohlang.

4-TOPSHIRIQ. CHo‘lponning “Kecha va kunduz” romanini o‘qib chiqing va uni quyidagi reja bo‘yicha tahlil qiling.

1. Asarda qaysi zamondagi voqealar tasvirlangan? Voqealar qancha muddatda ro‘y beradi?
2. Asar nega bunday nomlangan?
3. Asarning bosh qahramoni Zebi kim? Uni tavsiflab bering.
4. Razzoq so‘fining xotini va qizi bilan munosabatlari qanday bo‘lgan? Zebining taqdiri fojiali tugashida Razzoq so‘fi qanchalik aybdor?
5. Akbarali mingboshi kim? Unga ta’rif bering. Uning xotinlari bilan munosabati qanday?
6. Miryoqub obraziga ta’rif bering. “Epaqa” laqabi unga nega berilgan?
7. Miryoqubga Sharafiddin Xo‘jayev bilan bo‘lgan uchrashuv qanday ta’sir qiladi?
8. Asarda chorizmning tanazzuli qanday tasvirlangan?

9. “Kecha va kunduz” romani bugungi kunda qanday ahamiyatga ega?

10. “Kecha va kunduz” romanining“O’tgan kunlar” romani bilan qanday o‘xhash va farqli jihatlari mavjud? Shu haqda fikr yuriting.

5-Topshiriq. “Kecha va kunduz” romanini oqib chiqib quyidagi savollarga javob bering

1. Asarda qaysi qahramon eng kichik bolalik davridayoq butun qishloqning podasini boqib, oilasi ehtiyojini qondirgan, uning podachilik davrini qishloq aholisi havas bilan eslaydi?
2. Asarda Zebi o'rtoqlari bilan qishloqqa kimning uyiga mehmon bo'lib kelishadi?
3. Asarda mingboshining xizmatchilari kimlar edi?
4. Asarda Akbarali mingboshini gazetada maqtab maqola yozgan kim?
5. Asarda Qumariqda mingboshining ustidan bizga suv bermaydi, deya ariza yozgan boylar kimlar?
6. Asarda Akbarali mingboshi necha yil ellikboshilik qilgandi?
7. Asarda Akbarali mingboshi ellikboshilikka tayinlanish uchun avvalgi mingboshiga pora uchun nima bergen?
8. Asarda Akbarali mingboshi Miryoqub bilan qachon tanishgan?
9. Asarda Akbarali mingboshi mingboshilikda necha yil faoliyat ko'rsatgan?
10. Qovun saylidan ikki kun o'tgandan keyin Akbarali mingboshi Miryoqubning uyiga nimalar jo'natadi?
11. Asarda bir og'iz gapini silliq va yoqimli qilib gapirolmaydigan sodda va to'ng odam», - deb kimga ta'rif berilgan?
12. Asarda Zebi haqida: «Shaharda bir xudo bandasining ikkala dunyoga arziydigan bir qizi bor ekan!» - deya kim ta'rif beradi?

13. Asarda kimga «hovlisida muallim saqlab, o'g'illarini o'qitadi. Jadid mакtabiga pul bilan qarashadi. Odamlaming bolalarini yubortiradi. O'zi jadid gazeti o'qiydi...» - deb ta'rif berilgan?
14. Asarda berilgan «Yiqilgan polvon ham achchig'ini kulib yengadi» fikri kimga tegishli?
15. Asarda Akbarali mingboshining katta xotini kim edi?
16. Asarda Zebining sevgilisining ismi kim edi?
17. Asarda kimga «Epaqa» deb laqab qo'yilgandi?
18. Asarda Akabarali mingboshining qizining ismi nima?

6-Topshiriq.Mavzuni tasiya etilgan o‘quv va badiiy adabiyotlaridan o‘rganib , savollarga yozma javob bering.

1. Abdurauf Fitrat tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Fitratning Istambulda yashagan vaqtি haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
3. Fitratning Buxorodagi faoliyati xususida nimalar deya olasiz?
4. Fitrat Toshkentga nechanchi yilda keladi?
5. “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti va uning Fitrat biografiyasidagi o‘rni qanday?
6. Fitratning Moskva va Leningraddagi hayoti va faoliyati haqida nimalar ni bilasiz?
7. Fitratga shoir sifatida baho bering. Uning she’riyatiga xos qanday xususiyatlarni bilasiz?
8. Fitrat dramaturgiyasi mavzusi, dramatik asarlari taqdiri haqida ma'lumot bering
9. Fitratning “Adabiyot qoidalari” asari nima maqsadda yaratilgan? Uning bugungi kundagi ahamiyati qanday?
10. Fitratning “Yopishmagan gajaklar” maqolasi nega ochiq xat deyiladi, va u kimga javob sifatida yozilgan?

Testlar

1. Fitrat asarlarini ularning janri bilan juftlang

1	Mirrix yulduziga	A	Publisistik
2	Sayyohi hindi	B	Dramma
3	Temur sag'anasi	D	She'r
4	Rahbari najot	E	Ilmiy
5	Amir Olimxonning hukmronlik davri	F	Diniy-ma'rifiy
6	Adabiyot qoidalari	G	Darslik
7	O'quv	H	Tarixiy

Javob:	1-	2-	3-	4-	5-	6-	7-
--------	----	----	----	----	----	----	----

2. Fitratning “Abulfayzxon” asari qahramonlarini ularga berilgan to'g'ri ta'rif bilan juftlang

1	Abulfayzxon	A	Eron shohi
2	Ulfat	B	Xonning yaqin xizmatchisi
3	Davlat	D	Hakimbiyning o'g'li
4	Hakimbiy	E	Buxorodagi o'zbek xonlarining so'ngisi
5	Rahim qurchi	F	Nadirshohning o'g'li
6	Doniyorbiy	G	Xonning inog'i
7	Nadirshoh	H	Haram boshlig'i
8	Rizoqulixon	I	Hakimbiyning ukasi

Javob:	1-	2-	3-	4-	5-	6-	7-	8-
--------	----	----	----	----	----	----	----	----

3.”Hast” eshon bilan birga borib,u kishi tufayli shuncha izzat ikrom ko'rib,noz ne'matlarga serob bo'lib... “hast” eshondan

burun qochib kelganingiz nimasi?” ushbu gapda keltirilgan “hast” sozi qaysi so’zning aytilishi hisoblanadi?

A	“Hazrati”
B	“Hakam”
C	Bobo
D	“Haq”

4.”Chakka suyaklari turtib chiqqan, peshona-bo'yiga tor, eniga kenga ham uzun-uzun uch chuqur ajinga ega...Burun o'rtacha, ko'z qisilibroq kelgan, parda tomirlaridan ikki-uchtasi va ham ikkala ko'zining bir yonida jindak joyi hamma vaqt qizil,bir ko'zida picha shapag'liq asari ham bor...” asardagi ushbu ta'rif qaysi qaxramonga nisbatan berilgan?

A	Akbarali mingboshi
B	Razzoq so'fi
C	Xolmat
D	O'lmasxon

5. “Akbarali mingboshi qariyb dan buyon oq podshohimizning azamat davlatlariga sadoqat bilan xizmat qilib, shuncha zamon mobaynida hech qanday sarzanishga mustahiq bo'lmadilar.” asarda keltirilgan ushbu gapni to'ldiring.

A	O'n to'rt yil
B	O'n uch yil
C	O'n ikki yil

D O'n besh yil

6.Zebini Akbarali mingboshiga berishganda nechchi yoshda edi?

A	15 yoshda
B	14 yoshda
C	16 yoshda
D	17 yoshda

7. “Kecha va kunduz” romani qachon yozib tugallangan?

A	1934-yilda
B	1935-yilda
C	1936-yilda
D	1937-yilda

ADABIYOTLAR:

1. Qosimov B va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.- T.: 2004. 424-457-betlar, 352-385 bet.
2. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi; -T.: 1999 yil.113-136 betlar.
3. Sharafiddinov. O Cho'lpon, -T.: "Cho'lpon", 1991
4. Sharafiddinov. O Cho'lponni anglash.- T.: Xazina. 1994
5. Karimov.N. Cho'lpon. -T.: "Fan"1991
6. Cho'lponning badiiy olami (to`plam). -T.: Fan, 1994
7. Qosimov B. "Maslakdoshlar" (Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Fitrat, e`tiqod.ijod.)-T.:1994

8. Boltaboyev.H. A.Fitrat.- T.: Yozuvchi,1996
9. Boltaboyev. H Fitratning ilmiy merosi. –T.: 1996

Badiiy adabiyot:

1. Cho`lpon. Yana oldim sozimni. -T.: Adabiyot va san`at nashriyoti,1991
2. Cho`lpon. Adabiyot nadur.-T.:Cho`lpon,1994
3. Cho`lpon. Asarlar 1,2-jild, -T.: Xazina,1994
4. Fitrat A. “Adabiyot qoidalari”, -T.:1995
5. Fitrat A. “Chin sevish”- T.:1996
6. Fitrat A “Abulfayzzon”. “Sharq yulduzi” 1989 1-son
7. Fitrat A. Hind ixtitolchilari. “Sharq yulduzi” 1990, 4-son.

MAVZU: ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODI.

1-TOPSHIRIQ Quyida berilgan mavzularning biriga 3 -5 minutlik nutq tayyorlang

1. A.Qodiriy hayoti va ijodi.
2. Qodiriy romanlari.
3. “O’tgan kunlar” romani sahnada va ekranda.
4. Qodiriy ijodining bugungi kundagi ahamiyati

2- TOPSHIRIQ..Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” romani qahramonlari Kumushbibi va Zaynab obrazlarini qiyoslang. Ularni fojiali yakunga olib kelgan sabablarni izohlang.

3- TOPSHIRIQ. Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” romanini o‘qib chiqing va uni quyidagi reja bo‘yicha tahlil qiling.

1. Assarda qaysi zamondagi voqealar tasvirlangan? Voqealar qancha muddatda ro‘y beradi?
2. Asar nega bunday nomlangan?

3. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Kumushbibi kim? Ularni tavsiflab bering.
4. Yusufbek hojining xotini va o‘g‘li bilan munosabatlari qanday bo‘lgan? Kumushning taqdiri fojiali tugashida Otabek qanchalik aybdor?
5. Homidboy kim? Unga ta’rif bering. Uning atrofdagilar bilan munosabati qanday?
6. Zaynab obraziga ta’rif bering.
7. Asarda Qo‘qon xonligidagi sharoit qanday tasvirlangan?
8. “O‘tgan kunlar” romani bugungi kunda qanday ahamiyatga ega?
9. “O‘tgan kunlar” romanining “Kecha va kunduz” romani bilan qanday o‘xhash va farqli jihatlari mavjud? Shu haqda fikr yuriting.

4-Topshiriq. Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanini o‘qib, quyidagi savollarga javob bering.

1. Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romani orqali qanday illatlarni ko’rsatib bergen va bu asarni yozishdan maqsadi nima edi?
2. Romandagi voqealar orqali Turkistonning qay ahvolda ekanligini izohlang.
3. Asardagi Zaynab va Kumush obrazlari o’rtasida qanday farqlar bor? Ular do’st bo’lishlari mumkinmidi?
4. Kumush va Zaynabning o’rtasidagi o’limga olib boruvchi xusumatning sababi nima deb oylaysiz?
5. Otabekning otasiga nisbatan sovuq munosabatda bo’lishining sababi nima edi?
6. Har bir kitobxon romanni o‘qib bo’lgach, albatta Zaynabni yomon ko’rib qoladi. Ammo tasavvur qiling, asarda Zaynab obrazi yo’q. Sizningcha, asarda Zaynab obrazi qanday ahamiyatga ega?
7. Ikkinchi marta uylanishga rozi bo‘lgan Otabekning ruhiy holatini izohlang.
8. Otabek qaynotasi Mirzakarim qucidor bilan qay tarzda tanishgani haqida gapirib bering.

9. Otabek va Kumushning ilk uchrashuvi qanday yuz beradi?
10. Kumush nima sababdan Otabekka turmushga chiqishga darhol rozi bo'lmaydi? Bu uyalishmi yoki rozilik?
11. Sizningcha, Kumushbibini ayanchli o'lim topishining oldini olish mumkinmidi?
12. O'zbekoyim va Kumush munosabatlari, O'zbekoyimning Kumushni andi deb atashiga izoh bering.
13. Nima sababdan Otabek va Mirzakarim qutidor xiyonatkorlikda ayblanadi va hibsga olinadi?
14. Kumushning "Siz o'shami?" so'rog'i zamiriga qanday tuyg'u yashiringan?
15. Asarda qonli voqeа roy beradigan kecha qanday tasvirlanganini gapirib bering.
16. Yusufbek hojining kelinlar o'rtasidagi nizolarning bartaraf etishi xususida fikr bildiring.
17. Kumushning o'limida Zaynabning qo'li borligi ayon bo'lsa-da, nega jazo berish hukmi bekor qilinadi?
18. Asar so'nggidagi voqealar sizga qanday ta'sir qildi? Asrdagi qaysi qahramonga ko'proq achindingiz?
19. Siz ushbu asarni o'qib qanday xulosaga keldingiz va o'zingiz uchun o'zlashtirgan eng muhum ma'naviy boylik nima bo'ldi?

Keys: "O'tkan kunlar" romani

Keys savollar:

1. Otabekni ideal inson deb ayta olasizmi? Uning shaxs sifatida kamchiliklari bormi?
2. Asar ilohiy muhabbat haqidami yo davr siyosati?
3. Kumush ayyorroqmi yo Zaynabmi? Fikringizni misollar bilan izohlang.
4. Kumush nima uchun suygani Zaynabga uylanishiga ko'nadi, axir Otabek Kumushning roziligesiz ikkinchi turmush qurmasligini aytadi-ku?

5. Zaynab asarda nimanidir kiygisi kelsa, qayergadir borgisi kelsa istak-xohishlarini bildirolmaydigan, keyin hech kimga aytmay arazlab qoladigan qilib tasvirlanadi. Shu yoshgacha o'z orzulariga egalik qilolmagan Zaynabda Kumushga zahar berish jasorati qanday paydo bo'ladi?

Keys: Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani.

1. Asar qaysi voqeadan boshlanadi?
2. Solih Mahdum qanday odam? U chindan ham ilojsizligidan xon odamlariga rozilik berdimi?
3. Anvar qanday qilib Ra'noni Xudoyorxonidan asrab qoladi?
4. Xudoyorxon davlat tepasida turishga loyiq odammi?
5. Ra'noning jasorati nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Asardan xon davri haqida qanday xulosalar chiqardingiz?
7. Nima uchun asarda xalq xon zulmiga qarshi chiqmaydi?
8. Asar asosida qaysi film yaratilgan?

Abdulla Qodiriyl "Obid ketmon" qissasi keysi

Keys bayoni: Abdulla Qodiriyl 1934-yil qishloq hayotidan «Obid ketmon» qissasini yozdi. Asardagi Obid obrazi o'zbek adabiyotidagi noyob hodisa. Yozuvchi bu obraz tasvirida o'sha davrda odat tusiga kirgan tor "sinfiylik" doirasidan ancha chetga chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni ardoqlash yo'lidan boradi; xolis turib qishloq xo'jaligini jamoalashtirish harakatining bir qancha tomonlarini haqqoniy ko'rsatdi; ichki muammo – ziddiyatlarni ochib berdi, kolxozi tuzumi oxir-oqibatda odamlardagi tashabbusni, shaxsiy egalik, manfaatdorlik tuyg'usini so'ndirishligini aytdi. Abdulla Qodiriyl bu o'rinda iqtisod, xo'jalik masalalarining bilimdoni, tadqiqotchisi sifatida ham ko'rinadi; asar bosh qahramonining xarakteri, ruhiy olami asosan mehnatda, xo'jalik ishlarida ochiladi.

Keys savollari:

- 1) Abdulla Qodiriyning ushbu qissasi o'zbek adabiyotida qanday o'rinn tutadi?

2) Bitta so'z bilan Obidni qanday odam deb ta'riflash mumkin?

Qahramonni toping

Quyida keltirilgan ta'riflarni o'qib ularda qaysi asar qahramon tasvirlanganini toping .

1. Bu qahramon ellik besh yoshlar chamaliq, chala-dumbul tabiatlik bir xotin bo'lsa ham, ammo eriga o'tkirligi bilan mashhur edi. Uning o'tkirligi yolg'iz erigagina emas edi. O'zga xotinlar uning soyasiga salom berib to'ylarida, azalarida, yig'inlarida ham uylarining to'rini unga atagan edilar. Bu ayol uncha-muncha to'yu azalarga «kavshim ko'chada qolq'an emas» deb bormas edi. U o'z uyida o'lturbanida ham ustidagi atlas ko'ynak bilan adres mursakni, oq shohi dakana bilan qahrabo tasbihni qo'y may, qish kunlari tanchadan par yostiqqa suyalib, yoz kunlari avvonning to'riga yoslanib o'lturar edi. Bu qahramon kim?
2. Bu qahramon o'rta yosh, siyrak soqol, qotma, kun issig'lig'ig'a qarshi o'chakishkandek boshig'a eski telpak, egniga paxtasidan boshqasi to'zib ketkan guppi chopon kiyib, yangi bo'z belboqni besh-olti aylandirib bog'lag'an va unga besh-oltita chilim qovoqdan tortib to suvqovoq, nosqovoq va tomosha qovoqlarg'acha osgan; qovoqlarning og'irlig'idan arang harakat qiladirk'an o'z zamonasining mashhur bir kishisi edi. Bu qahramon Toshkandning barchasiga ma'lum; beklardan, boylardan; qisqasi, shaharning katta-kichigidan o'ziga ixlosmandlar ortdirg'an va ko'blarning tarafidan qilg'an karomatlari rivoyat etilgan bir odam edi. Shahardagi har kim uning oshnasi, karomati bilan beparvo bo'lg'anlar ham uning qiziq harakatlariga va tutal so'zlariga qiziqar edi. Yusufbek hojining o'g'li Otabekni uylantirgani haqidagi xabarni Marg'ilonga aynan shu qahramon keltiradi. Bu qahramon kim?

3. Bu qahramon asli qo‘qonlik. Ota-onadan yoshliqda yetim qolib tog‘asining qo‘lida o‘sgan.Yoshi 17—18 larga borg‘andan so‘ng bir o‘rtog‘ining kengashi bilan bundan yigirma yillar burun Marg‘ilong‘a kelib, bu kungi ustakorining otasig‘a to‘quvchiliq hunariga shogird tushadi. So‘ng u Sharif miltiqchining 13 14 yoshlardagi qizini sevib qoladi.Qiz 16 yoshga to‘lgach unga uylanadi. Faqat qiz ko‘zi yoriyotib vafot etadi.So‘ng qaynonasi ham vafot etib 11 yosh qayni uning qaramog‘ida qoladi.Keyingi uylangan xotini uning xonadonini fahsh suratda ro‘zg‘orini to‘zg‘itgani uchun uni taloq qo‘yadi.

4. Bu qahramon uzun bo‘ylik, qotmaroq va zarcha tanlik edi. harakati yengil va lavzi tez edi, ko‘zi o‘ynab, har sekundda o‘n yoqqa alang‘lar edi.Unga bolaliq chog‘idayoq uy ichi va qo‘ni-qo‘shni «shaddod» deb ism bergenlar, chunki ul kimdan bo‘lsa-bo‘lsin, aytkanini qildirmay qo‘ymas, agar birarta ish uning tilagiga teskari ketsa shovqin-suronni xudda boshig‘a kiyib olar edi. Shuning uchun uning rayini bilmasdan qozon osilmas, unga yoqmagan gapka og‘iz ochilmas, ul bor joyda qadam ham sanalib bosilur edi.

Onasi har bir hayitdan birar oylar ilgari eriga aytib bolalarig‘a kiyimlik oldirar edi. Oldirg‘an kiyimlik unga yoqmasa darrav yaramag‘anini aytib almashdirib berishka dadasini majbur etar va ko‘ngli-dag‘ini hosil qilib tinchir edi. Birar joyga mehmondorchiliq uchun boradirg‘an bo‘lsalar, u hammadan ilgari e’lon etar edi: «Men ham boraman!» Albatta uni qoldirib ketish uchun endi hech kimda had yo‘q. Ikkinci vaqt: «Men bormayman!» Bu taqdirda uni bir qadam siljitsin-chi!

U akasining do‘stiga xotin ustiga tegadi, lekin bunga kuyov bilan til biriktirib erishgani ma’lum bo‘ladi.Endi eri ko‘chada beklik qilsa, uyda xotiniga mute’ bo‘ladi.U kundoshini bo‘g‘ib uraverib, oxiri uning eridan taloq so‘rab ketishigacha olib boradi. Kundoshi 2 ta

bolasini ham o‘zi bilan olib ketadi. U endi o‘zi bemalol yashaydi, lekin o‘zining farzandi bo‘lmaydi.

5.Bu qahramon qisqa bo‘y, go‘shtdor va oq tanlik edi. Xarakteri loppos va o‘nta so‘zga arang bitta javob qaytaradiring‘an edi. Birav bilan betma-bet kelib so‘zlashqanida ham ko‘zini hamisha bir nuqtadan uzmas edi. U o‘z yaqinlaridan «pismiq» deb ism olg‘an, onasi bo‘lsa achchig‘i chiqg‘anda «ming‘aymas o‘lgur» deb uni qarg‘ar edi. Onasi qizining birarta ishdan norozilig‘ini payqab «Ming‘aymas, pismiq o‘lgur, tag‘in nima jin urdi seni?» deb so‘rag‘anida, qizi qovoqdudog‘ini solib bir og‘iz ham javob bermas edi. Nihoyat ertaga hayit degan kuni uning hurpayishi yig‘i bilan almashar va yig‘i orasi maqsad ochilsa ham ko‘pincha natijasiz qolar edi.

6. Bu qahramon otasining vafotida yigirma yoshliq talaba edi. Otasi marhum bo‘lg‘andan so‘ng o‘zidan bir necha yosh kattaroq og‘asi Marg‘ilong‘a imom bo‘lib oilasi bilan ko‘chib ketdi. U onasi va o‘n olti yoshliq Na’ima ismlik singlisi bilan Qo‘qonda qeldi. Moddiy jihatdan qiyinalgani uchun o‘qishni tashladi, lekin og‘ir ishlar qilolmadi. Nihoyat qorindosh-urug‘ va mahalla kishilarining kengashlari bilan o‘z uyiga maktab ochdi. Qirq yoshlarida mahallaga imom bo‘ladir va maktabini yana ham kengaytirib shu dahaning har bir tabaqasi ichida taniladir. Masalan, o‘zida savod chiqarg‘an kosib, savdogar, mullabachcha (madrasa talabasi) va shuningdek yangi bo‘g‘imlarg‘a ustozlik unvonini oladir.

Testlar

1. A.Qodiriy asarlari va bu asarlarning janrini to‘g’ri belgilang.

1	“Baxtsiz kuyov”	a	Drama
.			

2	“Juvonboz”	b	Satirik hikoya
3	“O’tkan kunlar”	c	Hikoya
4	“Toshpo’lat tajang nima deydi”	d	Roman

JAVOBI: 1-: 2-: 3-: 4-;

2. Asarlarni chop etilgan yili bilan to’gri ko’rsating.

1.	“Mehrobdan chayon“	a	1919-1920
2.	“O’tkan kunlar“	b	1914-1915
3.	“Obid ketmon”	c	1934-yil
4.	“Baxtsiz kuyov”	d	1928-1929

JAVOBI: 1- ; 2- ; 3- ; 4- ;

3. “O’tkan kunlar” (A); “Mehrobdan chayon“ (B); qahramonlarini aniqlang.

1.	Otabek	8	Sayidxon
2.	Yusufbek hoji	9	Og’acha oyim
3.	Mirzakarim qutidor	1 0	Mulla Siddiq
4.	Hasanali	11	Solih maxdum
5.	O’zbek oyim	1 2	Anvar
6.	Zaynab	1	Ra’no

		3	
7	Kumush	1 4	Sayidxon

JAVOBI;

A	B
----------	----------

4. A.Qodiriy tahsil olgan maskanlarni tartib bilan ko'rsating.

1.	Musulmon maktabi	4	Maskvadagi adabiyot kursi
2.	Abulqosim Shayx Madrasasi	5	Mir Arab madrasasi
3.	Rus-tuzem maktabi	6	Sherg'oziyxon madrasasi

**5. “O'tkan kunlar” asaridagi qahramonlarni mos ta'riflar
bilan juftlang.**

A	Yusufbek hoji	1.	Har qanday masala ustida uy ishchisi bilan uzoq suhbatlashib o'tirmaydi.
B	O'zbek oyim	2.	ellik besh yoshlar chamaliq, chala- dumbul tabiatlik, erga o'tkirligi bilan mashhur
C	Zaynab	3.	bir bechoraga ko'ra bila turib, ham jabr ham xiyonat
D	Oftob oyim	4.	ichidan atlas koynak, ustidan xon atlas guppy kiygan, boshig'a oq dakanini tashlagan.

Javobi: A- ; B- ; C- ; D- ;

6. Asar qahramonlari nimalardan qo'rqishganligini to'g'ri toping.

A	Otabek	a	Onasi Kumushni qanday qabul qilishidan
B	Kumush	b	Mirzakarim akaga o'g'lining xo'rlik keltirishidan
C	Yusufbek hoji	c	O'zbek Oyimning uni qabul qilmasligidan
D	Zaynab	d	Otabek uni tashlab ketishidan

Javob: A- , B- ; C- D- ;

7. “O'tkan kunlar” asari nechanchi yillarda qaysi tillarga tarjima qilinganligini juftlab yozing,

1 .	Ozorbayjon tiliga Xolid Said va Abdulla Qamchinbek tomonidan	a	1958-yil
2 .	Rus tiliga <u>Lidiya Bat</u> va <u>Vera Smirnova</u> tomonidan	b	1931-yil
3	Fransuz tiliga Kerol Yermakova tomonidan	c	2019-yil
4 .	Tojik tiliga	d	1935-yil

8. Quyida berilganlardan A.Qodiriy ijodiga xos asarlarni ajrating va mos raqamlarni jadvalning javob raqamlar qismiga yozing.

1	O'tgan kunlar	6	Kecha va kunduz
---	---------------	---	-----------------

2	Padarkush	7	Obid ketmon
3	Advokatlik osonmi?	8	Abdulfayzzon
4	Baxtsiz kuyov	9	Xalil Farang
5	Jinlar bazmi	10	Juvonboz

Ijodiga mansub asarlar	
Ijodiga mansub bo‘lmagan asarlar	

ADABIYOTLAR:

1. Qosimov. B va boshqalar. Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti. –T.: Ma`naviyat, 2004-yil, 400-424 betlar.
2. Normatov U. Yangi o`zbek adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T. : Universitet. 2007.
3. Qo`shjonov. M. A. Qodiriyning tasvirlash san`ati. -T.: Fan, 1996
4. Mirzayev. I. A. Qodiriyning ijodiy evalyutsiyasi. -T.: Fan, 1997
5. Qodoriy.A. Otam haqida. -T.: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1983
6. Normatov.U. Qodiriy bog`i. -T.: 1995
7. Nabijon Boqiy. Qatlнома “Sharq yulduzi” jurnalı, 1991-yil 5-6-son
8. Karimov N va boshqalar. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi, -T.: 1999 yil.
9. Qodoriy.A To`la asarlar to`plami. 1-tom. Sh`erlar. Hikoya va ocherklar. Hajviyalar. -T.: Fan, 1995
10. Qodoriy.A. O`tgan kunlar. Mehrobdan chayon. -T.: G.G`ulom nashriyoti,1992

MAVZU: XX asr 30-50-YILLARI O‘ZBEK ADABIYOTI

1.Mavzuni tavsiya etilgan o‘quv va badiiy adabiyotlaridan o‘rganib , savollarga javob bering

1. 30-50-yillar adabiyotiga xos jihatlar nimalardan iborat?
2. 30-50-yillarda yaratilgan qanday nasriy asarlarni bilasiz, ular haqida fikringiz qanday?
3. Bu davr adabiyotida sotsialistik realizm pritsiplari va vulgar tanqidchilikning o‘rni qanday?
4. 30-yillarda o‘zbek teatri nega siyosiy minbarga aylandi?
5. Urush davri o‘zbek she’riyatiga xos qanday xususiyatlarni bilasiz? Misollar bilan izohlang.
6. Konfliktsizlik nazariyasi qanday nazariya?
7. Adabiyotdagi yangilik va eskilik konflikti nimalarda ko‘rindi?
8. 30-50-yillar o‘zbek adabiyoti bugungi kunda qanday ahamiyatga ega?

Bu davrda yaratilgan asarlarning sahna, kino va televideniyedagi talqiniga oid mulohazalaringizni bildiring

Topshiriq. Oybekning “Qutlug’ qon” romanini o’qib, quyidagi savollarga javob bering.

1. Yo’lchi nima uchun yerlarini sotishga majbur bo’ladi?
2. Mirzakarimboy va Yo’lchining munosabatlarining buzilishiga nima sabab bo’ladi?
3. Unsinga onasidan yagona yodgorlik bo’lib qolgan narsa nima edi?
4. Yo’lchi va Salimning mushtlashishiga nima sabab bo’ladi?
5. Yo’lchi kimning istagiga ko’ra qamatib yuboriladi?
6. Akasi qamalganidan keyin Unsin kimning uyida yashaydi?
7. Boyning bolalari nima sababdan Gulnorni zaharlab o’ldirishadi?
8. Asarda keltirilishicha, musulmonlarning kofirlarga qarshi jang qilishi nima deb ataladi?
9. Yo’lchi qay tarzda halok bo’ladi?

10. Unsin Yo'lchining o'limidan keyin barmog'iga taqqan uzukni kim bergan edi?

Fuqaroning arzga borishi arbobning izzatimi? қейси

Keys bayoni: Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi 1936- yili yozilgan. Sigirini yo'qotgan Qobil bobo qo'shnisi- burunsiz ellikboshi, amin, pristavning oldiga ariza bilan boradi. Bu amaldorlarning birortasi bechora cholga achinmaydi. Uni sarson-sargardon qilib, "Suyunchisi nima bo'ladi?"- deb bechora kambag'alning qolgan-qutganini ham shilib olish payida bo'ladilar. So'ngra amin unga qarata "Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati boladi!" deydi- jaxl bilan.

Keys savoli: Aminning bu fikrga qo'shilasizmi? Haqiqatdan ham "Fuqaroning arzga borishi arbobning izzatimi?"

Mini keys: Abdulla Qahhorning “*Bemor*” hikoyasidan.

1. “Bemor” hikoyasi qanday voqeа bilan boshlanadi?
2. Bosh qahraman kim va unga qanday xarakter berasiz?
3. Sotiboldi nega bemor xotinini shifokorga olib boraolmaydi?
4. Sotiboldi bemor xotining yonida bo'lish uchun qaysi kasbni tanlaydi?
5. Bemor o'limidan oldin dardiga nima davo bo'lganini aytadi?
6. “Bemor” hikoyasida Sotiboldi kimga xizmat qiladi?
7. “Bemor” hikoyasida Sotiboldining yagona orzusi?
8. “Bemor” hikoyasida kasolxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga nima keladi?
9. Sotiboldining qizi necha yosh edi?
10. “Bemor” hikoyasiga qaysi maqol epigraf qilib olingan?

"Mamlakat boshida tili bilan dili bir odam turmasa, hayot sabzasi so'lurmi?" keysi

Keys bayoni: Oybekning "Navoiy" romani buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning hayot yo'li, ulkan aql-zakovati haqida yozilgan

yirik nasriy asardir. Bu roman 1942-yilda yozilib, 1944-yilda chop etilgan. Bu asar orqali bir qancha tarixiy shaxslar bilan tanishamiz. Asarda Navoiy Darveshali bilan bo‘lgan suhbatda shunday so‘zlarni aytadi: "Zolimlar borki, bang xayolotini elga karomat deb sotadilar, johillar borki kitob qo‘ltiqlab olimlik da'vo qiladilar. Mamlakat boshida tili bilan dili bir bo‘lgan, yolg‘iz xalq manfaatini o‘ylagan, oliv ruhli, pok vijdonli insonlar turmas ekan, hayot sabzasi tobora so‘lur".

Keys savoli: Siz ham bu fikrga qo‘shilasizmi? Mamlakat boshida tili bilan dili bir odam turmasa, hayot sabzasi so‘lurmi?

G’afur G’ulomning "Shum bola" asari yuzasidan savollar:

1. Qissada shaharning bir chekkasidagi xaroba uyni nashavand bangilar yig'iladigan takyaxonaga aylantirgan, o‘zini xudojo‘y qilib ko‘rsatadigan, biroq qilayotgan ishlari shariatga mutlaqo teskari bo‘lgan qahramon kim?
2. Qissada Shum bola Kalasdan ketayotganida o‘zini nimaga o‘xhatadi?
3. Qissada Shum bola kimning eshagini so‘yib, rosa kaltak yeydi?
4. Qissada «Oshtomog‘iga yuradigan arzonqo‘l kishilarni eshididan haydamaydigan» qahramon kim edi?
5. Asardagi samovarchi yigit kim edi?
6. Asarda qaysi qahramon Marg’ilondan olib kelgan xotiniga o‘zining katta xotinini singlim deb tanishtiradi?
7. Shum bola kimga atab qorxat yozadi?
8. Shum bolaning takyaxonadan qochishini kim aytadi?

Testlar:

1 . Asarlarni janrlari bilan juftlang.

1	Dilbar davr qizi	A	qissa
2	Cholg‘u tovushi	B	opera librettosi

3	Qutlug' qon	C	doston
4	Bolalik xotiralarim	D	she'r
5	Mahmud Torobiy	E	roman

javobi	1-	2-	3-	4-	5-
---------------	----	----	----	----	----

2. *Oybek asarlarini qahramonlari bilan juftlang.*

1	Azimjon	A	Bolalik xotiralarim
2	Sultonmurod	B	Bola Alisher
3	Zayniddin	C	Navoiy
4	Mirsaid	D	Quyosh qoraymas
5	Bektemir		
6	Safar cho'tir		

javobi	A -	B -	C -	D -
---------------	-----	-----	-----	-----

3. ‘‘Qutlug’ qon’’(a) , ‘‘Navoiy’’(b), ‘‘Quyosh qoraymas’’(c) qahramonlarini aniqlang.

1. Allouddin Mashxadiy	8. Qodir	15.Yormat
2. Bektemir	9. Yo'lchi	16. Tohir
3. Mirzakarimboy	10. Mo'min	17. Xo'ja Afzal
4. Oynisabibi	11. Sultonmurod	18. Hakimjon
5. Zaynoboy	12. Oynisa	19. Darveshali
6. Salimboy	13. Asqar polvon	20. Zayniddin
7. Arlsonqul	14. Navoiy	
javobi	a-	b-
		c-

4. Asarlarni muallifi bilan juftlang.-

1	<u>Oybek</u>	A	<u>Tuproq va Haq</u>
---	--------------	---	----------------------

<u>2</u>	<u>Chingiz Aytmatov</u>	<u>B</u>	<u>Kassandra tamg'asi</u>
<u>3</u>	<u>Maqsud Shayxzoda</u>	<u>C</u>	<u>Bolalik xotiralarim</u>
<u>4</u>	<u>Tohir Malik</u>	<u>D</u>	<u>Bolalik</u>

<u>javobi</u>	<u>1-</u>	<u>2-</u>	<u>3-</u>	<u>4-</u>
----------------------	-----------	-----------	-----------	-----------

5. Asar qahramonlari tavsifini to'g'ri belgilang.

<u>1</u>	Mirzakarimboy	A	Yo'lchining maslahatgoyi, oddiy avom
<u>2</u>	Yo'lchi	B	Mirzakarimboyning xotini, yomon bir ayol tasnifinda
<u>3</u>	Unsin	C	Mirzakarimboyning ukasi, qo'rqoq
<u>4</u>	Gulnor	D	Yo'lchining singlisi, oddiy qiz
<u>5</u>	Sharofatxon	E	Oddiy oilaning qizi, Yo'lchining sevgilisi
<u>6</u>	Salimboyvachcha	F	Mirzakarimboyning jiyani, mehnatkash, kuchli yigit,
<u>7</u>	Shokir ota	G	Shu yerlik aholida, ruslar zulmidan ozor chekkan, kambag'al
<u>8</u>	Qoratoy	H	Yo'lchining tog'asi, xasis boy

Javobi: 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8- .

6. Oybekning asarlarini xronologik tarzda joylashtiring.

<u>1</u>	Qatag'on paytida yozilgan asarlari	<u>A</u> "Baxtigul va Sog'indiq"
<u>2</u>	Urush	<u>B</u> "Qutlug'

	yillarida yozligan asarlari	qon”
3	Ikkinchı jahon urushi tugagandan keying asarlar	C “Navoiy”
4	30-yillarda yozilgan asarlari	D “Oltin vodiyyadan shabadalar”
		E “Mahmud Torobiy”
F	“Dilbar davr qizi”	
G	“O’ch”	

Javoblar: 1- , 2- , 3- , 4- .

7. Quyida berilgan asarlarning nomlarini ularning muallifi bilan moslang

1	Ulug’bek xazinasi	A	Abdulla Qahhor
2	Sarob	B	Said Ahmad
3	Yulduzli tunlar	D	Odil Yoqubov
4	Jimjitlik	E	Pirimqul Qodirov

Javob:	1-	2-	3-	4-
--------	----	----	----	----

8. Quyidagi Abdulla Qahhor hikoyalari qahramonlari bilan juftlab yozing.

1	Bemor	1	Mulla Norqo'zi
2	Dahshat	2	Arslonbek Qalandarov

3	Asror bobo	3	Usta Mo'min
4	Mayiz yemagan xotin	4	Unsin
5	Sinchalak	5	Sotiboldi

ADABIYOTLAR:

- 1.Mirzayev.S. XX asr o‘zbek adabiyoti.-T.: O‘qituvchi, 2004.
- 2.Karimov.N va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. –T.: O‘qituvchi,1999.
- 3.Boqiy.N. “Qatlnoma”. –T.: 1992.
- 4.Sharafiddinov.O. Sardaftar sahifalari. -T.:Yozuvchi, 1999.
5. Normatov U. Yangi o‘zbek adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T. : Universitet. 2007.
6. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. Adabiy-ilmiy maqolalar to‘plami. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016.
7. To‘rayeva B. Tarixiy romanlarda badiiy zamon muammosi: Filol. fanlari fal. d-ri(PhD) dis. avtoreferati. – T.: 2018.

MAVZU: XX asr 60-80-YILLARI O‘ZBEK ADABIYOTI

1.Mavzuni tavsiya etilgan o‘quv va badiiy adabiyotlaridan o‘rganib , savollarga javob bering

1. 60-80-yillarda yaratilgan qanday asarlarni bilasiz?
2. Bu davr adabiyotida qanday ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi?
3. Badiiy tarjima sohasida qanday yutuqlarga erishildi?
4. Adabiyotda “gap aytish”, “muammo ko‘tarish” tamoyili deganda nimani tushunasiz?
5. Tarix, inson xotirasi, o‘tmish saboqlari mavzularida qanday asarlar yaratildi?

6. Shaxs konsepsiysi, insonparvarlik ruhi aks etgan asarlar haqida fikr bildiring.
7. Badiiy tasvir, shakl, uslub sohasidagi izlanishlar haqida nimalarni bilasiz?

Topshiriq. Said Ahmadning “Ufq” romanini o’qib, quyidagi savollarga javob bering

1. Asarning yaratilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Roman-trilogiyaning “Qirq besh kun” deb nomlangan birinchi qismida qanday umumxalq qurilishi haqida hikoya qilinadi?
3. Tursunboyning erka, xudbin bo’lib o’sishining sababi nimada deb oylaysiz?
4. Ikromjon o’g’li Tursunboyni to’qayzorda uchratganda ular o’rtasida qanday vaziyat yuzaga keldi?
5. Ikromjonning ruhiy iztiroblari, musibatlarda dardiga malham bo’lgan mehribon insonlar kimlar?
6. Ikromjon o’g’lining hattti-harakatlaiga munosabati ikki xil: bir tomonidan unga farzandi sifatida achinsa, ikkinchi tomonidan uni ”xudbin”, ”qochoq” ”nomard” deya ta’riflaydi. Buni siz qanday tushunasiz?
7. S.Ahmadning “Ufq” romanini “Odamga quvonch beradigan, umid, uning boshi toshdan qiladigan, ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir”, - deya ta’riflagan adib kim edi?
8. Jannat xola, Ikromjon, Nizomjon xarakterlaridagi milliylik nimalarda ko’rinadi?
9. Asarda qaysi davr keng yoritib berilgan?
10. ”Ufq” romanida nimalar ulug’lanadi?

Odil Yoqubov ”Muzqaymoq” hikoyasi

1. Muzqaymoq hikoyasida muallif otasi kitoblarni kayerga yashirganligini aytadi?
2. Muzqaymoq hikoyasida muallifning otasi kim?

3. Muzqaymoq hikoyasida kim yarim chelak suvni ichib qoyadi?
4. Muzqaymoq hikoyasida "Qashqirdan tugilgan qashqircha" degan so'zni kim aytgan?
5. Muzqaymoq hikoyasida bolaning oyisi otasiga kancha miqdorda pul olib boradi?

O'lmas Umarbekov "Odam bo'lish qiyin" asari

1. O'lmas Umarbekov o'zining bu asari orqali yoshlarga oid qanday muammolarni yuzaga chiqargan?
2. Asar muqaddimasida keltirilgan Shoh va uning o'g'li haqida qisqacha hikoyaning asar bilan bog'liqlik jihatni aynan qaysi jihatlarda namoyon bo'ladi?
3. Hojar buvining xarakteristikasi va qishloqdagilar uni turli nomlar bilan atashiga qanday qaraysiz?
4. Obid akaning kirishimli, ko'nglida kiri yo'q hamda oddiy bir qishloq odami kabi xususiyatlari qaysi jihatlarda aks etadi?
5. Abdulla va Gulchehranining uzoq vaqtidan keyingi ilk uchrashuvi qanday sodir bo'ldi?
6. Ikki yildan keyingi bu uchrashuvdan keyin Abdulla qay holatga tushdi, ko'nglidan nimalarini o'tkazdi?
7. Sizningcha, bu kutilmagan uchrashuv Gulchehraga qanday ta'sir qildi?
8. Gulchehra va Abdullaning bolalik xotiralari qanday kechgan edi?
9. Bu xotiralarda yashagan Abdulla va Gulchehra bilan hozirgilari orasida qanday tafovut va o'xshashliklar bor deb oylaysiz?
10. Gulchehraning kelajak orzulari qanday edi?
11. Abdulla va Gulchehraning fikrlash borasidagi o'xshashlik va farqli jihatlar ularning aynan qaysi mavzudagi bahsmunozaralarida namoyon bo'ladi?
12. Abdulla va Gulchehraning pok muhabbatini bu qadar tubanlikka yuz tutishiga nimalar yohud kimlar sabab bo'ldi deb oylaysiz?

13. Zamon, Muhit, Odamlar... Bular sizningcha, iymon-e'tiqodi mustahkam, aql-zakovati yetarli insonlarni ham o'zgartira oladimi?
14. Sizning nazaringizda, Abdulla va Gulchehraning hayotida sodir bo'lган bu voqealarning oldini olish mumkinmidi?
15. Abdullani kutib kunlari bamisoli jahannamda o'tayotgan Gulchehra va butun aybdorlikni chorasiz qizga yuklayotgan Abdullaning ayni o'sha damdagi ichki kechinmalarini qanday izohlaysiz?
16. Sizningcha, Abdulla kelajak orzularining qurbanimi yoki yoshlikdagi bebosliknimi?
17. Asarning "Odam bo'lish qiyin" deb nomlanishi ko'proq Abdullaga bog'liq deb qaraydigan bo'lsak, Gulchehraning orzulari, azob va izardorlari aks etgan bu asarni yana qanday nomlasa bo'ladi?
18. "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin" jumlesi yana qaysi asar yoki asarlarda uchraydi?
19. Abdullaning taqdiri bilan o'xshash qahramonlar taqdiri aks etgan yana qanday asarlarni bilasiz?
20. Asar so'nggida siz qanday xulosaga keldingiz, sizningcha asardagi bu murakkab jarayonlarga qanday yechim topish mumkin edi?

ADABIYOTLAR:

1. Normatov U. Yangi o'zbek adabiyoti. O'quv qo'llanma. – T. : Universitet. 2007.
2. Mirzayev.S. XX asr o'zbek adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2004.
3. Karimov.N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi.-T.: 1999.
4. Mirzayeva.Z. XX asr o'zbek adabiyotining Amerikada o'rGANilishi. MonografiY. –T.: Fan, 2011.

5. Quronov.D va boshqalar.Adabiyotshunoslik lug‘ati.-T.: Akademnasho, 2010.
6. Hamdam.U.Badiiy tafakkur tadriji.Monografiya va maqolalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2002.
7. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma’naviyat. T.: Ma’naviyat, 2015
8. Jabborov N. Ma’rifat nadir. –T.: Ma’naviyat, 2010
9. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. Adabiy-ilmiy maqolalar to‘plami. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016.

MAVZU: ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK SHE’RIYATI. ERKIN VOHIDOV HAYOTI VA IJODI

TOPSHIRIQ. Erkin Vohidovning “Ruhlar isyon” dostonini o‘qing. Quyidagi savollarga javob bering

1. Asarning yaratilish tarixi haqida ma’lumot bering
2. Asar nega bunday nomlangan?
3. Asar qahramonlarini sanab bering
4. “Isyon qo‘shig‘i” qismida shoir nimaga qarshi isyon qiladi?
5. “Fidoyilik to‘g‘risida rivoyat” ni siz qanday tushundingiz?
6. “Jaholat to‘g‘isida rivoyat” da shoir jaholatni qanday tasvirlaydi? Sizning jaholat haqida fikringiz qanday?
7. “Shohi Jahon va Avrangzeb rivoyatida” shoir shohlar haqida qanday xulosa chiqaradi?
8. Bu asarni o‘qish sizga nima berdi?

1-Topshiriq.Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari” turkum she’rlarini o‘qib chiqing. Shoir Donishqishloq xalqi, Matmusa obrazi vositasida nomalar haqida so’z yuritgan? Bu turkum she’larda humor yetakchimi yoki satira?

ADABIYOTLAR:

1. Vohidov.E. "Saylanma", 2 tomlik -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
2. Vohidov.E. "Iztirob", - T.: Uzbekistan, 1992
3. Normatov.U. "Zamon va zamin tashvishlari", "Yoshlik" jurnali, 1986 yil, 7-son.
4. Xudoyberganov.N. "Haqiqat yog'dulari" -T.: G'.G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti, 1994 yil
5. Shukurov.N. "Adabiy portretlar", -T.: G'.G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
6. Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. – Toshkent: Adib, 2012. – B.92.
7. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati (tamoyillar, tajribalar, saboqlar). – Toshkent: Fan, 2007. –B.6.

MAVZU: ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA IJODI

1-TOPSHIRIQ. Abdulla Oripovning dramatik dostoni “Jannatga yo'l”ni o‘qing. Quyidagi savollarga javob bering

1. Asarning yaratilish tarixi haqida ma'lumot bering
2. Asar nega bunday nomlangan?
3. Asar qahramonlarini sanab bering
4. Shunday mavzuda yozilgan yana qanday asarlarni bilasiz va o‘qigansiz?
5. Asarning g‘oyasi nimadan iborat?
6. Asarni nimaga o‘qishni tavsiya qilasiz?
7. Bu asarni o‘qish sizga nima berdi?
8. Ijodkorlar nega bu mavzuga ko‘p murojaat etadilar?

ADABIYOTLAR:

1. Oripov. A. "Yillar armoni", -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986
2. Oripov A. "Haj daftari", -T.: 1992

3. Meliyev S. "Lirik fojelik", "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1991. 3-son
4. Sharafiddinov O. "Hayot bilan hamnafas", -T.: F.Fylom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983
5. Qo'shjonov M. "Onajonim she'riyat", - T.: "O'qituvchi", 1984
6. Gafurov I. "She'riyat kurashchanlik demak", -T.: F.Fylom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
7. Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. – Toshkent: Adib, 2012. – B.92.
8. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati (tamoyillar, tajribalar, saboqlar). – Toshkent: Fan, 2007. –B.6.

MAVZU: ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK NASRI

1.Mavzuni tavsiya etilgan o'quv va badiiy adabiyotlaridan o'r ganib , savollarga javob bering

1. Istiqlol davri o'zbek nasriy adabiyotining qaysi vakillarini bilasiz?
2. Istiqlol davri o'zbek nasrida millat dardi, fojiaviy taqdiri haqida hikoya qiluvchi qanday asarlarni bilasiz?
3. O'zbek adabiyotida modernizmga xos unsurlardan foydalanib shaxs va borliq, o'lim va hayot, ruh va tana, din va osiylik kabi muammolarni talqin qilgan qanday asarlarni bilasiz?
4. Mustaqillik davrida yaratilgan tarixiy mavzudagi asarlar haqida fikr bildiring.
5. Bu davrda yaratilgan milliy romanlarda umumturkiy va jahon adabiyotida ishlanib sayqal topgan qaysi mavzularga murojaat etilmoqda?
6. Erkin A'zam ijodi bilan qanchalik tanishsiz? Uning qaysi asarlarini o'qigansiz? Ular haqida fikr bildiring

7. E.A'zam asarlarining ekrandagi talqinlari haqida qanday fikr dasiz?
8. Tohir Malik ijodi va uning asarlari haqida fikr bildiring
9. Tohir Malikning didaktik, detektiv, ma'rifiy mavzudagi qaysi asarlarini o'qigansiz?
10. Mustaqillik davrida yozilgan qaysi asarlar sizga ko'proq yoqadi va nima uchun?

1-Topshiriq. Tohir Malikning “Alvido, bolalik!” qissasini o’qib chiqib, quyidagi savollarga javob bering.

1. Insho nomini “Baxtli bolalik” emas, “Alvido, bolalik!” deb yozishni taklif qilgan bola kim edi?
2. Qamariddinning qanday armoni bor edi?
3. Qamariddin “marja” deb kimni nazarda tutadi?
4. Asror to'yda otasidan yashirib olgan pullariga Dilfuzaga nimalar olib beradi?
5. Otasi aravakash, dars tugashi bilan somonbozorga yuguradi deb ta'riflangan qahramon kim?
6. Detdomga bola asrab olishga kelganlar nima sababdan Qamariddinni olib ketishmasdi?
7. Qamariddin Asrorga Dilfuzaga berishi uchun bergen pulni qayerdan olgan edi?
8. Akasining jasadini Afg'onistonдан olib kelishgan qahramonning ismi nima?
9. Qamariddin necha yilga qamaladi?
10. Asarda baxtli bola deb tasvirlangan bola kim?

Keys: Tohir Malikning “Shaytanat” romani

Keys savollar:

1. Asarning bosh qahramoni kim va uning xarakteri qanday?

2. “Shaytanat” so’zi nimani anglatadi? Muallif qaysi yozuvchidan ilhomlanib shunday nom bilan atagan?
3. Tohir Malikning qaysi xislatini asardagi obrazlar bilan qiyoslay olasiz?
4. Asar sizda qanday taassurot uyg’otdi?
5. Asadbek ijobiy qahramonmi yoki salbiy? Nima uchun? Fikringizni isbotlang.
6. Asar qahramonlarining kechinmalari bilan siz ham duch kelganmisiz?
7. “O’tkan kunlar” romanidagi Kumush bo’lishni orzu qilgan, u berishni istagan “Siz o’shami?” savolini chimildiq kuni turmush o’rtog’iga aytgan, ammo bundan yuragi zada bo’lgan qahramon kim edi?
8. Zaynabni nima uchun o’g’irlab ketishadi? Qizini o’g’irlanganini eshitgan Asadbek o’zini qoyarga joy topolmaydi. Nima deb oylaysiz, bu –g’ururi toptalganidanmi yoki qiziga bo’lgan otalik mehri tufaylimi?
9. Asardagi Elchin kim? Uning sifatlarini sanang.
10. Muallif nima uchun Elchinni “otarchi’ kasbida ta’riflaydi?
11. Anvar nima sababdan o’limni afzal bilib joniga qasd qildi?
12. Zaynab onasiga: “Nimaga meni ismimni Zaynab deb qoygansizlar?!” deb o’kinadi. U nega ismidan nafratlanar edi?
13. Qizi o’g’irlanib ketganini eshitgan Jalil do’stiga “Xudodan qaytibdi... Sen qilmasang, shotirlaring qilgandir...” degan fikriga qanday qaraysiz? Haqiqatan ham inson o’zi nopok ishlar qilmasa-da uning yaqinlari shu ish bilan shug’ullansa, bu ishda ularga sherik bo’lmagan, ammo xabardor bo’lgan insonga ham qarg’ish tegadimi?
14. Asarda Asadbekning eski uyida Hosil boyvachchaga Elchin o’q uzadi. “Xotinini sharmanda qilgan, buni u qilishi kerak” deb hisoblaydi. Filmida esa, Asadbekning o’zi Hosil

boyvachchaning uyiga borib o'ldiradi. Qanday fikrdasiz, bu voqeaga asardagi xulosa ma'qulroqmi yoki filmdagi?

15. Asardagi Muhiddin ota kim edi? Uni ta'riflang.
16. Asadbekning ichki psixologiyasini qachon tushundingiz? Ekrandagi talqindami yoki asarda?
17. Jalil Asadbekning ishlarini harom deb bilsa ham, o'zi bunday ishlarga aralashmasa ham nima uchun do'stidan voz kechmaydi?
18. Zelixon qanday inson edi? Uning millati chechen bo'lsa ham nega o'zbeklarga yordam beradi?
19. "Ikki qanoti" dan ayrilgach, Asadbekning hayotida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi? Asar qanday yakun topadi?
20. Yoshlarga asar salbiy ta'sir ko'rsatmaydimi?
21. Asadbekday odamning hayotda bo'lishini xohlarmidingiz?

3-Topshiriq. Badiiy adabiyot va kino o'rtasidagi munosabat haqida fikr yuriting va quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling

1. Jahon va o'zbek adabiyoti namunalaridan qaysilari muvaffaqiyatli ekranlashtirilgan deb o'ylaysiz? Misol keltiring va fikringizni dalillang
2. Bugungi kunda adabiyot va kino o'rtasidagi dialog qanday hollarda foydali bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz?
3. O'zbek kinosida badiiy adabiyotga murojaat qilish qay darajada? Uning natijalarini qanday baholash mumkin?
4. Badiiy adabiyotdagi obraz va kinoobraz o'rtasida qanday umumiylit yoki farq mavjud? Biror asar va uning ekranizasiyasi misolida fikr bildiring.
5. Nima sababdan ko'pincha badiiy asarning ekranlashtirilgan shakli originaliga qaraganda yomonroq chiqadi?
6. Ekranizatsiya qilinganidan so'nggina mashhur bo'lib ketgan badiiy asarlarni bilasizmi?

4-Topshiriq. Muhabbat haqidagi badiiy asarlarning ekranlashtirilishi haqida ma'lumot tayyorlang. Said Ahmadning "Ufq" asari misolida" mavzusida prezentatsiya tayyorlang. Unda SH.Abbosovning "Muhabbat mojarosi" filmi haqida fikr yuriting.

ADABIYOT:

1. Karimov.N va boshqalar. "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi".- T.: 1999.
2. Hamdam.U "Adabiyot - oldinda yongan chiroq". Maqola. JA 2015 yil, №1 146 - 162 betlar
3. Qozoqboy Yo'ldosh. Roman va bugungi o'zbek romanchiligi (2010 yil romanlari misolida).- Sharq yulduzi. 2013, №3.
4. Normatov U., Boltaboyev H. Bugungi adabiyotda estetik ideal va qahramon muammosi. Suhbat // Jalon adabiyoti, 2012, № 4. – B.134-147.
5. Malik.T. Odamiylik mulki. -T.: 2013.
6. www.ziyonet.uz
7. www.xurshiddavronkxt.uz

MAVZU: O'TKIR HOSHIMOV HAYOTI VA IJODI

1-Topshiriq. O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanini o'qib, quyidagi savollarga javob bering.

1. 'Tushda kechgan umrlar' asari qanday so'zlar bilan boshlanadi?
2. Rustamjonning va Shahnozaning ilk tanishuvi qanday sodir bo'lgan?
3. Rustamning o'z joniga qasd qilishiga nima sabab bo'lgan deb oylaysiz?
4. Shahnoza birinchi qor yog'ganini ko'rgach nimalarni esga oladi?
5. Sizningcha, Rustamning hayotini qaysi voqealarda o'zgartirib yubordi?

6. Rustam kim bilan, nima sababdan janjallahgan edi?
7. Sizningcha, Rustamning Afg'onistonfda bo'layotgan urushga ketishi to'g'ri edimi?
8. Asardagi qahramon G'aniyev G'anining qaysi jihatlari ijobiy?
9. Rustam va Shahnozaning toyлari qaysi faslda bo'lib o'tgan edi?
10. Rustamning eng yaqin do'stining Afg'on urushida halok bo'lishi unga qanday ta'sir etdi?
11. Rustam nechta kundalik yozgan?
12. Asarning asl mohiyati nimada? Muallif Rustam kabi asar qahramonlari orqali nimalar demoqchi edi?
13. Rustam asli qayerlik edi?
14. "Kecha mening eng baxtli kunim edi. Bugun-esa eng badbaxt kunim" Qaysi asarda uchraydi ushbu ibora?

2-Topshiriq. O'tkir Hoshimovning "Nur borki soya bor" romanini o'qib quyidagi savollarga javob bering

1. Asarning umumuiy mazmuni haqida qanday fikringiz bor?
2. Sherzod kasalxonaga tushguncha qanday voqealar roy berdi?
3. Sizningcha Sherzodning Sayfi Soqihevich bilan tanishuvi baxtmidi yo baxtsizlik?
4. Asarning ikki qahramoni qay vaziyatda tanishib qoladi?
5. Sherzod do'sti bilan ko'rishganda nimalarni his qiladi?
6. Sherzod kimning oldida o'zini aybdor his etar edi? Sizningcha buning sababi nimada?
7. Sherzodning taqdirida qanday o'zgarishlar roy berdi?
8. Fikringizcha Sayfi Soqihevich qanday insonlarning asardagi aksidir?
9. Asardagi voqealar qay tariqa yakun topdi?
10. Haqiqatdan ham jamiyatimizda hozirda ham shunday insonlar bormi?

3-Topshiriq. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanini o‘qib, savollarga javob bering.

1. Yozuvchi romanda qaysi tarixiy davrga murojaat qiladi? U tarixiy voqealarini qanday yoritadi?
2. Roman nima uchun bunday nomlangan?
3. Roman qahramonlarini sanab bering. Ularning qaysilarini ijobiy yoki salbiy qahramon deb hisoblaysiz? Fikringizni dalillang.
4. Robiya va Ra’no obrazlarini qiyoslab tahlil qiling.
5. Muzaffar Shomurodov obraziga harakteristika bering.
6. Romanning bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘zlang. Uni nima sababdan o‘qishni tavsiya qilasiz?

Mini keys: “Ikki eshik orasi” romani.

1. Roman qanday voqealari tasviri bilan boshlanadi?
2. Robiya kim? Nima sababdan u Kimsanlarnikida yashaydi?
3. Robiyaning otasi kim edi? Nima sababdan ular o’z uy-joyini tark etadi?
4. Shomurod nima uchun xotinini o’ldirmoqchi bo’ladi?
5. Robiya kimga turmushga chiqadi?
6. Robiya Shomurodga nima sababdan turmushga chiqadi?
7. Muzaffar Robiyani onasi sifatida tan oladimi?
8. Shomurodning oyog’i nima sababdan oqsoq bo’ladi?
9. Kimsan va Robiya o’rtasidagi muhabbat nimadan boshlanadi?
10. Ikki eshik romanidagi voqealar qaysi davrda bo’lgan?

“Rost bilan yolg’on orasi to’rt enlik, yeshitganingga emas ko’rganingga ishon” keysi

Keys bayoni: Yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani o‘tgan asrning 80-yillarida yozilgan bo‘lib, unda adib 1933-yildan to 1977-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Asarda inson taqdirida urushning tutgan o‘rni, odamlar qismatini chigallashtirib yuborishi, odamning gunohdan xoli emasligi va ezgulik hamda

yovuzlik o‘rtasidagi azaliy kurashda alaloqibat ezgulikning g‘alaba qozonishi, biroq kurashning tamom bo‘lishi hayot dinamikasini so‘ndirishi haqida hikoya qilinadi. Muallif bu asarida bitta asosiy qahramon — kichkintoy Muzaffar, maktab o‘quvchisi Muzaffar, student Muzaffar hamda injener Muzaffarning qismati doirasida turlituman taqdirlar va chigal hayot yo‘llarini mohirona tarzda bir ipga tiza olgan. Romanni mutolaa qilarkanmiz, ular xuddiki tarqoqdek, hammasi bir-biridan ayrodek tuyuladi. Biroq yakunda barcha qahramonlar — Robiya, qora amma, Shomurod, oddiy askar Kimsan Husanov, Umar zakunchi, Ra’no hamda Munavvarning alohida hikoyalari bir butun majmua kasb etib, asar motivining yagona liniyada bo‘lishini ta’minlaydi.

Keys bo‘yicha savollar:

1. Agar urush bo‘Imaganida, Muzaffar, Robiya, Kimsan, Husan duma, Orif oqsoqol, Ra’no, oqsoqolning kelinlari, Rashid abzi, Umar zakunchi, Bashorat, Munavvar, umuman, butun insoniyatning hayoti qanday kechar edi? Aksariyat baxtsizliklar baribir yuz bergen bo‘larmidi yoki yo‘q?!
2. Robiyaning otasini kim deb chaqirishar edi?
3. Husan aravakashga duma laqabini nima uchun berishgan?
4. Munavvar Muzaffar uchun kim bo‘ladi?
5. Oddiy askar Kimsan Husanovning nazdida, nimaning orasi bir qadam?

Keys vaziyat: O‘g’lining o’lganiga ishonmasdan uni kelishini kutsa-da, Qora amma kelinini ya’ni o‘gay qizini ukasiga xotin qilib olib beradi. Siz agar shunday vaziyatiga tushganingizda nima qilgan bo’lar edinngiz?

Testlar

1. O’tkir Hoshimov asarlari qahramonlarini va asarlari nomlarini juftlang.

1	Shahnoza	A	Bahor qaytmaydi
---	----------	---	-----------------

2	Anvar	B	Ikki eshik orasi
3	Qahramon	C	Tushda kechgan umrlar
4	Kimsan	D	Dunyoning ishlari

Javob:	1.	2.	3.	4.
--------	----	----	----	----

2. “Dunyoning ishlari”(A), “Tushda kechgan umrlar” (B), “Ikki eshik orasi” (C) asarlari qahramonlarini aniqlang va jadvalning javob qismiga yozing.

1	Qahramon	10	Orif oqsaqol
2	Ra’no	11	Qurbonboy xola
3	Robiya	12	Shayx
4	Hoji buvi	13	Muzaffar
5	Rustam	14	Sanjar aka
6	Niso xola	15	Guli
7	Shahnoza	16	Duma
8	Qora amma	17	Zakunchi
9	Kimsan	18	Ermon Buva

Javob:	A:	B:	C:
--------	----	----	----

ADABIYOT:

1. Karimov.N va boshqalar. “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi”.- T.: 1999.
2. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – T., Yangi asr avlod. 2005.
3. Normatov U. Yangi o‘zbek adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T. : Universitet. 2007.
4. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma’naviyat. -T.: Ma’naviyat, 2015

- 5.** Jabborov N. Ma’rifat nadir. –T.: Ma’naviyat, 2010
- 6.** Karimov B. Ruhiyat alifbosi. Adabiy-ilmiy maqolalar to‘plami. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016.
- 7.** Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi, -T.: “Sharq” nashriyoti. 2012
- 8.** Hoshimov O‘. Tushda kechgan umrlar. -T.: “G‘afur G‘ulom nashriyoti.2002.
- 9.** Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari.-T.: “Sharq” nashriyoti, 2005.
- 10.** Hoshimov O‘. Sevgi qissalari. –T.:“O‘zbekiston”, 2013.

Mustaqil topshiriqlar

1. Milliy Uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti haqida ma’lumot bering.
2. Fitrat she’rlaridan birini yod oling.
3. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani haqida ma’lumot tayyorlang.
4. A Qodiriy ijodi haqida ma’lumot tayyorlang.She’rlaridan yod oling.
5. Oybekning birorta asarini o‘qib chiqing. Unda realizm adabiyotiga xos jihatlarni ko‘rsating.
6. Oybekning “Qutlug‘ qon” asaridagi Yo‘lchi va Mirzakarimboy obrazlariga xarakteristika bering.
7. Abdulla Qahhor ijodiga sharh tayyorlang.
8. Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasida o‘zbek xalqi hayotining haqqoniylar aks ettirilishi
9. Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasi tahlili.
10. Abdulla Qahhorning “Sarob“ romanida Rahimjon Saidiy fojiasining aks ettirilishi.
11. Tohir Malikning “Shaytanat” pentalogiyasi tahlili.
12. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani haqida mulohaza yuriting.
13. Zamonaviy yangi romanlardan biriga taqriz yozing

Uyga topshiriq

Quyida keltirilgan asarlardan birini yozma tahlil qiling. Tahlil qilishda badiiy asar tahlilining taxminiy sxemasidan foydalaning.

1. Behbudiy M. “Padarkush” dramasi
2. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asari
3. Abdulla Qodiriy “O‘tgan kunlar” romani
4. Abdulla Qahhor “Ayajonlarim” komediyasi
5. Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romani
6. Odil Yoqubov “Billur qandillar” qissasi
7. O‘lmas Umarbekov “Odam bo‘lish qiyin” romani
8. Erkin A’zam “ Shovqin” romani
9. Erkin A’zam “Chapaklar va chalpaklar mamlakati” qissasi
10. Nazar Eshonqul “Bahouddinning iti” hikoyasi
11. Ulug‘bek Hamdam “Muvozanat” romani
12. Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” romani
13. Erkin Vohidov “Istambul fojiasi” dostoni
14. Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasi

BADIY ASAR TAHLILI SXEMASI

1. Asarning yaratilish tarixi.
2. Asarning mavzusi.
3. Asarda ak ettirilgan muammolar.
4. G‘oyaviy yo‘nalishi va emotsiyal pafosi.
5. Janriy o‘ziga xosligi.
6. Asosiy badiiy obrazlar, ularning o‘zaro bog‘liqligi.
7. Asarning markaziy qahramonlari.
8. Syujet va konfliktni qurishdagi o‘ziga xosligi.
9. Peyzaj, portret, qahramonlarning dialog va monologlari, interer, harakat holati.

10. Asarning nutqiy qurilishi (muallif tasviri, qahramonlar nutqi, mulohazalar).
11. Syujet va asosiy obrazlar kompozisiyasi, shuningdek umumiy tuzilishi (badiiy asar tuzilishi, asar tarkibiy qismlari va elementlari o‘rtasidagi bog‘liqlik, masalan, nechta syujet chizig‘i bor,, syujetdan tashqari elementlar).
12. Asarning yozuvchi ijodida tutgan o‘rni.
13. Asarning jahon adabiyotida tutgan o‘rni.

Mustaqil topshiriq: INTELLEKT KARTA YARATISH

Mental karta aslida mindmaps deb atalib, uni mashhur olim, intellekt va tafakkur masalalari bo‘yicha ma’ruzachi va maslahatchi Toni Byuzen o‘ylab topgan. “Mindmaps “ so‘zi mind-aql, map-xarita deb tarjima qilinadi. IK yana ong kartasi, xotira kartasi, tasavvur kartasi, fikr kartasi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. T.Byuzen asarlarining tarjimasida ko‘proq intellekt karta terminidan foydalanilgan bo‘lsa, IK yaratish jarayoni esa mayndmepping deb atalgan.

IK bu informasiyani samarali tizimlashtirish, fikrlash, shaxsiy ijodiy potensialni qo‘llashga imkon yaratuvchi vositadir. Kartalar asosiy g‘oyalarni belgilab olishga va ular o‘rtasidagi aloqani aniqlab olishda qulaylik yaratadi. IK insonda yuzaga kelgan mulohaza va fikrlar bilan ularning qog‘ozga tushirilishi bosqichlari o‘rtasidagi jarayondir. Vizual obrazlarni qo‘llash miyaning qo‘srimcha imkoniyatlarini ishlatib qisqa vaqt ichida informasiyani qayta ishlashga yordam beradi. Shu jihatdan IKni faqat o‘quv materialini tizimlashtiruvchi, esda saqlab qoluvchi vosita bo‘lib qolmay, balki mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi ham deyish mumkin.

IK yaratishda 6 ta qonunga asoslaniladi. Ularga rioya qilish IKni tugal shaklda yaratishga yordam beradi. T.Byuzen bu qonunlarni 2

guruhga bo‘ladi: 1. Mazmun va tasvir qonunlari 2. Struktura qonunlari. Mazmun va tasvir qonunlari deganda quyidagilar tushuniladi: emfaza (ifodalilik)ni qo‘llash, tasavvurni qo‘llash, fikriy aniqlikka intilish; o‘z uslubini ishlab chiqish. Struktura, ya’ni IK tuzilishiga oid qonunlarga: fikriy ketma-ketlikka rioya qilish, fikrlarni raqamlab, izchil bayon qilish kiritiladi. IK ni yaratishda strelkalar, ranglar, ma’lumotlarni kodlashtirishdan foydalanishni tavsiya etiladi.

T.Byuzen yuqorida sanab o‘tilgan qonunlarni yanada aniqroq tushunilishi uchun quyidagi qo‘sishimcha tavsiyalarni ishlab chiqdi. Jumladan, emfazani qo‘llash uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

- doim markaziy obektni qo‘llash;
- ko‘proq grafik obrazlarni ishlatish;
- markaziy obraz uchun uch yoki undan ortiq rangdan foydalanish;
- tasvirda hajmdor, bo‘rtib turuvchi harflardan foydalanish;
- sinesteziyadan (emosional-hissiy ta’sirning barcha turlarining umumlashmasi) foydalanish;
- harf, liniya, grafika kattaligini o‘zgartirib qo‘llash;
- IK elementlarini optimal joylashtirish;
- IK elementlari orasidagi masofa uyg‘un bo‘lishi.

IK ning muvaffaqiyatli chiqishi uchun yana quyidagi tavsiyalarga rioya qilish so‘raladi:

- bir liniyaga bir kalit so‘z va bosma harflarni ishlatish;
- kalit so‘zlarni liniya ustiga joylash, asosiy liniyalarni quyuqroq chizish;
- suratlar aniq bo‘lsin, qog‘ozni gorizontal shaklda chizish;
- so‘zlarni gorizontal yozish.

IKlarni bugungi kunda ta’limda barcha fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkin. IK ta’limning turli shakllarida qo‘llanishi mumkin:

- yangi materialni o‘rganish, mustahkamlash, umumlashtirishda;
- ma’ruza, referat, ilmiy tadqiqot ishlarini yozishda;
- loyiha, prezентasiyani tayyorlashda;

- annotasiya, taqriz berishda, konspekt qilish va hokazo.

T.Byuzen standart konspektlashtirish jarayonida quyidagilar yo‘q deydi: vizual ritm, vizual tizim,rang, obrazlar (tasavvurlar) ma’lumotning grafik namoyishi, katta obektlarni aks ettirish, makondagi oriyentir, geshtalt (yaxlit tasavvur), assosiasiya (tasavvur).

An’anaviy konspektlashtirish qiyin bo‘lib, ko‘p vaqtini oladi va samarali emas. Unda ko‘pincha kerakmas ma’lumotlar ham yoziladi. Uni o‘qishga, kalit so‘z va asosiy tushunchalarni matndan qidirib topishga yana vaqt ketadi.

IK tuzishga yordam beruvchi conceptDraw MINDMAPPER, Mind manager, MindMapper kabi qator kompyuter dasturlari mavjud bo‘lib, ular turli xil grafik, sxema, jadvallarni yaratishga yordam beradi


Demak, mayndmepping metodikasi asosini asosiy g‘oya yoki tushunchani aniqlab olib, undan chiqadigan masala, g‘oya, fikr va vazifalar belgilab olinadi. Bular esa aniq reja va g‘oyaning amalga oshishiga xizmat qiladi.Intellek karta tuzishda quyida keltirilgan g‘oyalar ketma-ketligini barcha kartalar uchun universal deyishimiz mumkin:



- Asosiy savollar: qanday? Qachon? Qayerda? Nima uchun? Kim? Nima? Qaysi?
- bo‘limlar : boblar, qismlar, mavzular;
- xususiyatlar: kimningdir yoki nimaningdir tavsifi;
- tarix : voqealarning xronologik ketma-ketligi;
- struktura : shakli va ularning o‘zaro bog‘liqligi;
- funksiya: kimningdir yoki nimaningdir o‘rni yoki vazifasi;
- Jarayon: voqealarning rivojlanish bosqichlari;
- Baholash: nimadir yoki kimningdir qanchalik foydali, qadrli, qimmatli ekanligi;
- Tasniflash : obektlarning bir-biri bilan qanday munosabatda ekanligi;
- Aniqlash: kimdir yoki nimadirning mohiyatini belgilab olish;
- Shaxslar : insonlarning xarakteri va roli;

Foydalanish uchun adabiyot:

1. Byuzen. Supermishleniye. T.Byuzen -L.: Minsk; Popurri, 2003
2. T.Byuzen. Karti pamysi. Ispolzuy svoyu pamyat na 100 %. T.Byuzen. -M.: RosmenPress, 2007
3. Myuller X. Sostavleniye mentalnix kart. Metod generasii i strukt uirovaniya idey. X.Myuller -M.: Omega -L, 2007, -126 s
4. Sazanova L. A. Mentalniye karti kak sredstvo obucheniya v vuze // Perspektivi razvitiya informacionnix texnologiy. - 2016. - № 28. - S. 118.

Intellekt karta namunalari:





**O‘ZBEK ADABIYOTI FANIDAN MUSTAQIL O‘QISH
UCHUN BADIY ADABIYOT RO‘YXATI**
1-semestr

1. “O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari”. 1-jild.(Eng qadimgi davrdan XIV asrgacha). Toshkent: “Fan”, 2003, 331 bet.
2. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. 3 tomlik. Toshkent. “Fan”, 1960-63.
3. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. -Toshkent, 1976.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig.-Toshkent, “Fan”, 1971.
5. Nosiruddin Burxoniddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. 1-2-kitob. -Toshkent, “Yozuvchi”, 1992.
6. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. -Toshkent, 1969.
7. Alisher Navoiy. Xamsa.(nasriy bayon)-Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2013, 432 bet.
8. Alisher Navoiy. G‘azallar. Sharhlar. -Toshkent. “Kamalak”, 1991.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. -Toshkent, “Sharq”, 2002, 336 bet.
10. Qissai Mashrab. -Toshkent, “Yozuvchi”, 1992.
11. Gulxaniy. Zarbulmasal.-Toshkent, “Ma’naviyat”, 2009, bet.
12. Uvaysiy she’riyatidan. –T.: 1980.
13. Nodira. Asarlar. 2 jildlik. -T.: 1971.
14. Muqimiy. Asarlar to‘plami.1-2 tom. -T.: 1970.
15. Furqat. Tanlangan asarlar. -T.:

2-semestr

1. Behbudiy. “Padarkush” dramasi
2. Fitrat. “Abulfayzxon”.” Chin sevish”. “Hind ixtitolchilari”.
3. Cho‘lpon. “Yana oldim sozimni” to‘plami.”Kecha va kunduz” romani
4. Qodiriy.A. “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari

5. Oybek. “Qutlug‘ qon” , Navoiy “ romanlari
6. Qahhor.A. “Sarob” romani. Hikoyalari.
7. G‘ulom.G‘ulom. Nasriy asarlari.She’rlari.
8. Said Ahmad. “Ufq” trilogiyasi. Hikoya va qissalari.
9. Yoqubov.O. “Diyonat” romani.Hikoya va qissalari.
10. Hoshimov.O‘. “Ikki eshik orasi” romani.
11. Hoshimov.O‘. “Dunyoning ishlari” qissasi.
12. Vohidov.E. “Istambul fojiasi”dramasi.She’rlari.
13. Oripov.A. “Jannatga yo‘l”dostoni.She’rlari.
14. Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab.She’rlar. -T.: 2012.383 bet.
15. Muhammad Yusuf. Saylanma. -T.: “Sharq”, 2002.
16. Tohir Malik. To‘la asarlar to‘plami.-T.:2013.
17. Umarbekov.O‘.”Odam bo‘lish qiyin” romani.
18. To‘xtaboyev.X. “Mungli ko‘zlar” , “Besh bolali yigitcha” romanlari
19. Vohidov.E. “So‘z latofati” kitobi.
20. Vohidov.E.”Ruhlar isyoni” dostoni
21. A’zam E. “Shovqin” romani. Qissalari, hikoyalari.
22. Hamdam.U. Muvozanat. Romani.

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDAN MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. “Avesto” adabiy manba sifatida.
- 2.O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari adabiy manba sifatida.
- 3.Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi afsona va xalq qo‘shiqlari.
- 4.Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.
- 5.“Qutadg‘u bilig” hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar.
- 6.Ahmad Yassaviy “Hikmatlar” ida tasavvuf masalalari.
- 7.Ahmad Yugnakiy “Hibatul haqoyiq” asari tahlili.
- 8.Nosiruddin Rabg‘uziy hayoti va ijodining manbalari.

- 9.“Qiscasi Rabg‘uziy” (“Qiscas ul-anbiyo”)da hikoyalarning badiiy xususiyatlari.
10. Pahlavon Mahmud ruboiylari.
11. O‘zbek mumtoz adabiyotida tasavvufning o‘rni.
12. Alisher Navoiyning ilmiy merosi.
13. Alisher Navoiy - aruzshunos.
14. Alisher Navoiy -tazkirananavis.
15. Alisher Navoiyning «Nasoyim-ul muhabbat» asarida so‘fiylar talqini.
16. Alisher Navoiy obrazi sahnada va ekranda
17. Oybekning “Navoiy” romani Navoiy obrazi tasviri.
18. Izzat Sulton va Uyg‘unning “Alisher Navoiy “ dramasi tahlili.
19. Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishi.
20. Mashrab hayoti va ijodi haqida ma’lumot beruvchi manbalar.
24. Bobur she’riyati.
25. Xiva adabiy muhiti.
26. “Boburnoma”ning badiiy xususiyatlari.
27. Munisning she’riy merosi.
28. Boburning ilmiy-falsafiy merosi.
29. Munisning tarjima va tarixiy asarlari.
30. Muhammadrizo Ogahiy hayoti va ijodining manbalari.
31. Ogahiyning she’riy merosi.
32. Ogahiy tarixchi va jamoat arbobi.
33. Ogahiy - tarjimon.
34. Qo‘qon xonligida adabiy hayot.
35. Qo‘qon adabiy muhitining shakllanishi.
36. Uvaysiyning she’riy merosi.
37. Uvaysiyning epik asarlari.
38. Nodira-Komila ijodi.
39. Nodira hayoti va ijodining manbalari.
40. Nodiraning she’riy merosi.
41. Munis hayoti va ijodining manbalari.

42. “Boburnoma” talqinlari.
43. Mashrabning ilmiy biografiyasi (Fitrat maqolasi asosida).
44. Uvaysiy she’riyatida ishq talqini.
45. Alisher Navoiy g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
46. Alisher Navoiy “Xamsa”si va uning Sharq adabiyotida tutgan o‘rni.
47. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
48. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonidagi maqolotlar va hikoyatlar talqini.
49. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonining badiiy xususiyatlari.
50. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonidagi badiiy mahorat qirralari.
51. Alisher Navoiy “Sab’ayi sayyor” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
52. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni g‘oyaviy xususiyatlari.
53. Boburnomada ayollar timsoli.
54. Uvaysiy ijodida kichik janrlar.
55. “Boburnoma”da Boburning adabiy qarashlari.

XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTIDAN MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Zavqiy. Hayoti va ijodi. Satiralari.
2. Muqimiy. Lirikasi. Sayohatnomalari.
3. Furqat ijodining o‘rganilishi.
4. To‘lagan Xo‘jamyorov – Tavallo hayoti va ijodi.
5. Sidqiy Xondayliqiy. Ishqiy va ijtimoiy lirikasi.
6. Siddiqiy – Ajziy hayoti va ijodi.
7. So‘fizoda – o‘zbek adabiyotining zabardast vakili

8. Gasprinskiyning badiiy asarlari.
9. Behbudiyning tanqidiy qarashlari.
10. Munavvarqori Abdurashidxonov hayoti va ijodi
11. Avloniy hayoti va ijodi.
12. Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq asari” tahlili.
13. Fitratning ilmiy merosi.
14. Fitrat dramaturgiyasi.
15. Qodiriy -o‘zbek romanchiligi asoschisi.
16. “O‘tgan kunlar” asari tahlili.
17. “Mehrobdan chayon” romani tahlili.
18. Cho‘lpon adabiy merosi.
19. Cho‘lpon she’riyati.
20. Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romani tahlili.
21. Fitrat lirikasi va nasri.
22. Abdulla Qodiriy hajviyoti.
23. Cho‘lpon nasri va dramaturgiyasi.
24. Oybek poeziyasi.
25. G‘afur G‘ulom nasri.
26. Abdulla Qahhorning qissa va romanlari.
27. Said Ahmad komediyalari.
28. Odil Yoqubov qissalari va dramalari
29. Pirimqul Qodirovning tarixiy romanlari
30. Erkin Vohidov pesalari.
31. Erkin Vohidov. “Ruhlar isyonii” dostoni
32. Abdulla Oripov dramalari.
33. A.Oripov “Jannatga yo‘l” dramasi
34. O‘tkir Hoshimov dramalari.
35. O‘.Hoshimov “Ikki eshik orasi” romani.
36. Shukur Holmirzayev dramalari.
37. Muhammad Yusuf she’riyati.
38. Tohir Malik ijodi.

39. O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" romanida yoshlar obrazi.
40. Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" tahlili.
41. X.To'xtaboyev romanlarida zamonaviy yoshlar obrazi tahlili.
42. X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" va "Sariq devning o'limi" asarlarining bugungi kundagi ahamiyati.
43. X.To'xtaboyevninig "Mungli ko'zlar" romanida bir oila fojiasining tasvirlanishi.
44. X.To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" romanida beg'ubor bolalik tasviri.

O'ZBEK ADABIYOTI FANIDAN YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI 1-semestr

1- variant

1. Qadimgi Sharq afsonalaridan qaysilarini bilasiz? Bu afsonalarni nima uchun o'rganish lozim deb o'ylaysiz?
2. Navoiyni shaxs va ijodkor sifatida qaysi jihatlarini ayniqsa o'rganishimiz kerak deb o'ylaysiz?
3. Xorazm adabiy muhitida ijod qilgan qaysi ijodkorlarni va asarlarini bilasiz?

2- variant

1. O'rxun-Enason yodgorliklari qanday yodgorliklar? Biz nima uchun ularni o'rganishimiz zarur?
2. Temuriylar hukmronligi davrida ijod qilgan qaysi ijodkorlarni bilasiz? Ularning qaysi asarlari bilan tanishsiz?
3. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistondagi hayot, madaniyat va adabiyotni o'rganish bugungi kun yoshlariga nimani beradi? Misollar bilan tushuntiring.

3- variant

1. "Kitobi Dada Qo'rquq" va "O'g'uznoma", "Irq bitigi" asarlari va ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida ma'lumot bering

2. Navoiy davrida adabiyotda aks ettirilgan qaysi mavzular yoki muammolar bugun ham dolzarbligini yo‘qotmagan?
3. Muqimiylar va Furqat bir davrda ijod qilgan shoirlar sifatida ularning ijodida qanday farqli va umumiy jihatlar mavjud?

4- variant

1. “Avesto” ni o‘rganish bugungi kun kishisiga nima beradi?
2. Bobur she’riyati nimasi bilan boshqalarnikidan farq qiladi?
3. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda qanday tarixiy voqealar aks etdi va ular adabiyotda qanchalik o‘z aksini topdi?

5- variant

1. Bugun yaratilayotgan san’at va adabiyot asarlarida mumtoz o‘zbek adabiyotiga xos bo‘lgan didaktik tushunchalar, qarashlar qanchalik o‘z aksini topgan? Misollar bilan tushuntiring.
2. “Boburnoma” nasriy, tarixiy, memuar asar sifatida bugungi kun o‘quvchisiga qanday ma’lumotlarni bera oladi?
3. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda yashab ijod etgan qaysi ijodkorlarin bilasiz? Ularning qaysi asarlarini o‘qigansiz?

6- variant

1. Sharq didaktik adabiyotining sizningcha qanday o‘ziga xos jihatlari mavjud? Ularni o‘qigan asarlarining misolida tushuntirishga harakat qiling
2. Qo‘qon xonligida yashab ijod etgan qaysi ijodkorlar va ularning asarlarini bilasiz?
3. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarida o‘zbek xalqining qanday o‘ziga xos jihatlari, mental xususiyatlari, urf odatlari ayniqsa yaqqol aks etgan deb o‘ylaysiz?

7- variant

1. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari boshqa didaktik asarlardan nimasi bilan farq qiladi?

2. Bobur shaxsi va ijodiga murojaat etgan qaysi ijodkor va san'atkorlarini bilasiz? Ularning qaysi asarlari bilan tanishsiz?
3. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda yaratilgan asarlarda qaysi mavzu va muammolar ko‘proq aks ettirilgan? Misollar bilan tushuntiring.

8- variant

1. XXI asr kishisiga didaktik adabiyot bugun qanchalik zarur deb o‘ylaysiz?
2. Milliy Uyg‘onish davri adabiyoti qanday bosqichlarga bo‘lib o‘rganiladi?
3. “Boburnoma” nasriy, tarixiy, memuar asar sifatida bugungi kun o‘quvchisiga qanday ma’lumotlarni bera oladi?

9- variant

1. «Qissasi Rabg‘uziy» asaridagi qissa va hikoyatlarning mazmun-mohiyatida nimalar yotadi? Bu asarni nima uchun o‘rganish lozim?
2. XVIII-XIX asrlarda Qo‘qon va Xorazm xonliklarida yaratilgan qaysi adabiy asar namunalarini o‘qib chiqdingiz? Ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida nima deya olasiz?
3. Alisher Navoiy ijodiy merosining o‘ziga xos jihatlari haqida fikr yuriting.

10 -variant

1. Navoiyning qaysi asarlarini o‘qidingiz? Ularni o‘qib o‘zingiz uchun nima oldingiz yoki nimalarni anglay olmadingiz?
2. XVIII-XIX asrlarda Qo‘qon va Xorazm xonliklari davri hayoti, madaniyati, adabiyoti bugungi san’at, kino va teatr san’atida qanchalik o‘z aksini topgan?
3. Eng qadimgi og‘zaki va yozma adabiy yodgorliklar, ularni o‘rganish XXI asr kishisiga nima beradi.

2- SEMESTR UCHUN YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI

1-variant

- 1.Abdulla Oripov she’riyatidagi falsafiy mushohada xususida fikr yuriting
2. Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanining bugungi kundagi ahamiyat.
3. Tohir Malik asarlaridan birini o‘qib tahlil qiling

2-variant

1. Fitrat asarlaridan birini o‘qib tahlil qiling
2. 60-80-yillar o‘zbek adabiyoti vakillaridan kimlarni bilasiz, qaysi asarlarni o‘qigansiz?
3. Abdulla Qahhor ijodining bugungi kundagi ahamiyati qanday? Misollar bilan tushuntiring

3 -variant

1. Abdulla Qodiriy romanlaridan birini o‘qib tahlil qiling
2. Erkin Vohidovning“Ruhlar isyoni” dostoni haqida mulohaza yuriting.Dostonni o‘qish bugungi kun o‘quvchisiga nima beradi?
3. Said Ahmad adabiy merosi.

4-variant

1. Said Ahmad “Ufq” trilogiyasining xususiyatlari.
2. Erkin Vohidov she’riyatining o‘ziga xos jihatlari misollar bilan tahlil qiling.
3. Istiqlol davri o‘zbek nasri vakillaridan kimlarning asarlarini o‘qigansiz? Ulardan olgan taassurotlaringizni bayon qiling

5-variant

1. O‘tkir Hoshimovning birorta asarini o‘qib tahlil qiling

2. Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dramatik dostoni sizda qanday tassurot qoldirdi? Shu mavzuda yozilgan yana qanday asarlarni bilasiz?

.3. Jadid adabiyoti vakillaridan kimlarning asarlarini o‘qigansiz? Misollar bilan fikrlaringizni dalillang

6- variant

1. Abdulla Qahhor “Sarob” romanini o‘qib tahlil qiling.
2. A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi yaxshi va yomon xulqlar haqida siz qanday fikrdasiz? Bugungi kunda insonga xos qaysi yomon xulqlar insoniyatga ko‘proq zarar keltiryapti?
3. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati vakillaridan kimlarning ijodi bilan tanishsiz? Ulardan namunalar keltirib tahlil qiling

7-variant

1. E.Vohidov she’riyatining o‘ziga xos jihatlarini misollar bilan tushuntiring.
2. Odil Yoqubov nasrining g‘oyaviy - badiiy jihatlari.
3. Jadid adabiyoti namunalarinig sahna va ekrandagi talqini

8-variant

- 1..O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi.
2. Oybekning “Qutlug‘ qon” romanini o‘qib, uning o‘ziga xos jihatlari haqida fikr bildiring
3. Sho‘rolar davri adabiyoti namunalarining sahna va ekrandagi talqini xususida fikr bildiring

9-variant

1. Jadid adabiyotining vujudga kelishi va uning xususiyatlari.
- 2.O‘.Hoshimovning “ Ikki eshik orasi” romanini o‘qib tahlil qiling
3. Abdulla Oripov dostonlarining bugungi kundagi ahamiyati

10-variant

1. 60-80- yillar o‘zbek adabiyoti xususiyatlari

2. O‘tkir Hoshimov qissalarining mavzusi va ularda ko‘tarilgan muammolar haqida fikr yuriting.
3. Istiqlol davri o‘zbek she’riyati vakillari ijod

MUNDARIJA

O‘zbek adabiyoti fanidan mustaqil ta’limni tashkil etishga doir metodik tavsiyalar.....	3
Kirish nazorati.....	5
Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.....	6
X-XII asrlar turkiy tildagi didaktik adabiyot.....	13
XIII-XIV asrlar o‘zbek adabiyoti.....	21
Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti.....	27
Bobur hayoti va ijodi.....	34
Qo’qon xonligi adabiy muhiti.....	45
Xiva xonligi adabiy muhiti.....	53
Milliy uyg‘onish davri adabiyoti ilq bosqichi.....	54
Milliy uyg‘onish davri jadid adabiyoti.....	56
Fitrat va Cho’lpon hayoti va ijodi.....	62
Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi.....	69
XX asr 30-50-yillari o‘zbek adabiyoti.....	79

60-80-yillar o‘zbek adabiyoti.....	85
Istiqlol davri o‘zbek she’riyati. E.Vohidov ijodi.....	88
Abdulla Oripov hayoti va ijodi.....	89
Istiqlol davri o‘zbek nasri.....	90
O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi.....	94
Mustaqil ish. Intellekt karta yaratish.....	101
Badiiy adabiyot ro‘yxati.....	106
Mustaqil ish mavzulari.....	107
Yakuniy nazorat savollari.....	111

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

SEVARA MAHMUDOVA

***O'ZBEK ADABIYOTI
FANIDAN MUSTAQIL TA'LIM
UCHUN METODIK TAVSIYALAR***

(uslubiy qo'llanma)